

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
XALQARO JURNALISTIKA FAKULTETI
AUDIOVIZUAL JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYA KAFEDRASI**

RUSTAMOVA YULDUZZON SUVANKULOVNA

**TEMIR YO‘L SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING OAVDA
YORITILISHI
("TEMIRYO‘LCHI" GAZETASI HAMDA O‘ZBEKISTON TEMIR
YO‘LLARI AJ VEB-SAYTI MATERIALLARI MISOLIDA, 2016-2017-
YILLAR)**

**mavzusida 5220100 – jurnalistika (xalqaro jurnalistika) yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

"HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI"

**"Audiovizual jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiya" kafedrası mudiri**

_____ f.f.n. A.Karimov

2017 yil "17" may

ILMIY RAHBAR:

_____ katta o‘qituvchi

S.Umirov

2017 yil "17" may

Toshkent – 2017

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB. O'ZBEKISTONDA TEMIR YO'L SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA USHBU IXTISOSLASHGAN OAV FAOLIYATIGA TAVSIF

- 1.1. O'zbekistonda temir sohasidagi islohotlar va "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati faoliyati
- 1.2. "Temiryo'lchi" gazetasi tarmoq nashri sifatida
- 1.3. www.railway.uz - "O'zbekiston temir yo'llari" AJ veb-sayti tahlili

II-BOB. "TEMIRYO'LCHI" GAZETASI HAMDA WWW.RAILWAY.UZ SAYTIDA SOHAGA OID ISLOHOTLARNI YORITISH MAHORATI

- 2.1. "Temiryo'lchi" gazetasida temir yo'l sohasi islohotlarini yoritish tajribasi: mavzular va janriy o'ziga xosliklari
- 2.2. www.railway.uz saytida temir yo'l islohotlarini yoritish mahorati va bunda internet jurnalistikaning imkoniyatlaridan foydalanish masalalari
- 2.3. Temir yo'l sohasiga oid yangilanishlarni yoritishda mavzu va muammo ko'tarish mas'uliyati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Matbuot va axborot vositalarini to'rtinchi hokimiyat sifatida e'tirof etish, huquqiy davlat oyoqqa turishining muhim shartlaridan biri ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Modomiki O'zbekiston erkin, ochiq huquqiy demokratik davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu shartlarni bajarishi kerak. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlari ham mazkur mezonlardan kelib chiqib yaratilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalari oldiga butunlay yangi vazifalarni qo'ymoqda. Matbuot aholida yangicha tafakkur va ongni shakllantirishda ta'sirchan qurol bo'lishi, kishilarning fikr va xohish-irodasining erkin, ammo xolis ifodachisi, aytish mumkinki, inson manfaatlarining izchil va faol himoyachisi bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimovning iborasi bilan aytganda: "Ommaviy axborot vositalari demoklashtirish yo'lining, islohotlar yo'lining faol targ'ibotchisi bo'lib qolishi shart. Ayni paytda ularning o'zi mohiyat jihatidan demokratik bo'lmog'i zarur".¹

Mavzu ommaviy axborot vositalari va islohotlar haqida berarkan, islohotlar natijasini ularning mazmunini xalqqa yetkazishda matbuotning roli katta. Xalqimiz tub yangilanishlar jarayonini qanchalik chuqur o'rgansa, galdagi qilinadigan ishlarimiz maqsadi ham shunchalik aniq bo'ladi. Bugungi matbuot esa ana shu murakkab vazifani bajarmog'i zarur.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995-yil 14-fevralda Farg'ona viloyati kengashining sessiyasida so'zlagan nutqida shunday degan edi. "Biz ochiq jamiyat qurmoqdamiz. Maqsadlarimiz, niyatlarimiz va ishlarimiz ochiq yashiradigan joyi yo'q. Demak, Prezident ham, vazirlar ham, hokimlar ham, oddiy fuqaro ham ochiq bahsdan, ochiq muloqotdan o'zini tortmasligi shart. Bizni saylagan odamlar oldida hokimiyat

¹ Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi T. O'zbekiston; 1997, 5-tom. 125-bet.

faoliyatidan xabardor bo'lishi va unga baho berishda matbuot vositachi rolini bajarishi lozim. Lekin matbuot erkinligi, matbuot ta'sir kuchi haqida biz juda ko'p gapiramizu, ammo amalda natija ko'rinmayapti. Ayniqsa, viloyatlar matbuoti hamon yuzaki bo'lib kelmoqda.

Matbuotimiz islohotlar, hayotimizning yangilanishi yo'lida to'siq bo'lib turgan, to'rachilik kayfiyatini, umuman, hayotimizda yechilmagan ko'pdan-ko'p muammolarni ochiq-oydin yoritishda zaif bo'lib qolmoqda"¹.

Albatta, bu hol uchun faqat matbuot organlarining o'zini ayblash ham adolatdan emas. Muxbirlar axborot olish masalasida, ayniqsa ishlab chiqarish, moliyaviy masalasidagi ob'yektiv ma'lumotlarini olishda juda katta to'siqlarga duch kelayotgani, axborot berish burchi, vazifasi bo'lgan mansabdorlarning bu muhim masalaga bepisand qarayotganis ham sir emas.

Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston tarixida ilgari hech qachon ommaviy axborot vositalari xodimlari zimmasiga hozirgidek sharaflil va mas'uliyatli vazifa yuklatilmagan. Jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar yangicha va ularning andozasi yo'q. Siyosiy sohani olamizmi, ijtomiy va ma'naviy sohani olamizmi, sodir bo'layotgan jarayonlarning barchasi o'ziga xos yagilikdir.

Temir yo'l sohasidagi islohotlarning qanday borayotganligini bilish, uning mazmun-mohiyatidan keng ommani xabardor etish eng dolzarb, jurnalistlarga, ayniqsa, mazkur sohaga ixtisoslashgan mavzuda chop etiladigan nashrlar zimmasiga katta va sharaflil mas'uliyat yuklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy 2017-yilni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi ham barcha jabhalarda taraqqiyotning demokratik tamoyillarining amal qilishini, davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Bitiruv malakaviy ishini temir yo'l sohasidagi islohotlarning aynan ixtisoslashgan OAVda, xususan, "Temiryo'lchi" gazetasi hamda O'zbekiston

¹ Karimov I. A. Yangicha fikrlash va iishlash –davr talabi.T. „O'zbekiston" 1997, 5 tom, 351-352 betlar.

temir yo'llari AJ veb-saytida 2016-2017 yillarda yoritilishini maqsad etishga kirishganimizning boisi ham, ishning dolzarbligi ham shunda ko'rinadi.

Malakaviy ishni yozishdan maqsad – “Temiryo'lchi” gazetasi hamda O'zbekiston temir yo'llari AJ veb-saytida 2016-2017-yillardagi axborot materiallarida temir yo'l sohasidagi islohotlarni qay darajada yoritilayotganligini o'rganish, mavzuning qirralarini ochishdan iborat.

Bitiruv ish o'z tuzilishiga ko'ra ikki bob, kirish va xulosadan iborat.

Ilk bobda “Temiryo'lchi” gazetasi hamda O'zbekiston temir yo'llari AJ veb-saytining asosiy maqsad vazifalari, mavzuni yoritish tajribasini ochishga harakat qilindi.

Ikkinchi bobga asosan gazetadagi maqolalarni tahlil qilib, mavzu va muammo ko'tarish masalalarini ko'rib chiqiladi. Temir yo'l sohasini yoritishga ixtisoslashgan jurnalistlarning kasb mahorati, bilim va tajribasi yuzasidan mulohazalari bildirilgan.

Bitiruv malakaviy ishida ba'zi kamchiliklar, muammolari borasidagi takliflar ham bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishimiz ilk tadqiqotimiz bo'lganligi uchun u ba'zi kamchiliklardan xoli emas. Niyatimiz kelgusida mavzuni yanada mukammal o'rganib, temir yo'l sohasidagi islohotlarning amalga oshish jarayoniga o'z hissamizni qo'shib, bu haqda ilmiy izlanishlar olib borish.

I-BOB. O'ZBEKISTONDA TEMIR YO'L SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA USHBU IXTISOSLASHGAN OAV FAOLIYATIGA TAVSIF

1.1. O'zbekistonda temir sohasidagi islohotlar va "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati faoliyati

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ O'zbekiston respublikasi hududida joylashgan sobiq O'rta Osiyo temir yo'llari bazasida 1994-yil 7-noyabrda tashkil topgan. Umumiy temir yo'l uzunligi 3645 kmni tashkil etadi. Jamiyatda 54.7 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Yillik yukni ayirboshlash barcha turdagi transportlarning yuk ayirboshlashi qo'shilmasining 90% tashkil etadi.

Hozirgi kunda jamiyat tuzilamasi tubdan isloh qilinmoqda. Alohida e'tibor muayyan sohalarni xususiylashtirishga qaratilmoqda.

Jamiyatning asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardir:

- tarqatish va temir yo'l orqali yuklarni yetkazib berish;
- temir yo'l vagonlarini sozlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- yo'lovchi, sayyohlik tashishlar;
- xizmat ko'rsatish, lokomotiv va vagon parkini yangilash.

Jamiyat uchun ustuvor yo'nalish quyidagi sarmoya loyihalarini amalga oshirish hisoblanadi:

- optik tolali liniyalar yordamida aloqa kanallarini mustahkamlash;
- yangi harakatlanuvchi tarkib sotib olish (elektrovoz va vagonlar) hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish;
- yangi temir yo'l liniyalarini qurish;
- temir yo'llarni elektrlashtirish;

•yo'llarni kapital ta'mirlash loyihalarini amalga oshirish, jamiyat zavodlarida yo'lning ustki qurilmasi elementlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish va hokazo.

Jamiyatda sarmoyaviy qo'llab quvvatlashni talab qiladigan bir necha loyihalar mavjud bo'lib, ular amalga oshirilgan taqdirda sarmoyachiga katta foyda olib kelishni va'da qiladi.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ 1993-yildan beri Temir yo'l Hamkorlik Tashkiloti a'zosidir. Jamiyat Xalqaro Temir yo'llari Ittifoqi va Osiyo va Tinch okeani hududidagi BMTning Iqtisodiy komissiyasi bilan uzviy aloqaga ega.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ TRASEKA (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori) loyihasining Yevropa Ittifoqi Komissiyasi TESIS dasturi bilan hamkorlikda ish olib bormoqda¹.

O'zbekiston temir yo'llari o'zining 20-yillik tarixi davomida murakkab shakllanish va jadal rivojlanish yo'lini bosib o'tdi va bugungi kunda yurtimizning barcha mintaqalarini ishonchli bog'lash uchun bamisoli qon tomirlari kabi hayotiy zarur bo'lgan temir yo'l transporti kommunikatsiyalarining mustaqil, yagona va yaxlit tizimi sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Agarki mana shunday temir yo'llar bo'lmasa, biz qanday hayot kechirishimiz, iqtisodiyotimizni qanday rivojlantirish mumkinligini tasavvur qilishning o'zi ham qiyin bo'lardi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo'yicha yuklarning 60 foizdan ziyodi, yo'lovchilarning esa 75 foizdan ortig'i temir yo'l transporti orqali tashilmoqda.

O'zbekiston temir yo'llari transmintaqaviy transport koridorlarining eng muhim bo'g'ini sifatida xalqaro temir yo'llar tashuvi tizimida munosib o'rin egallamoqda. Ma'lumki, qadim zamonlardan boshlab hozirgi O'zbekiston zamini bo'ylab Buyuk ipak yo'li o'tgan va bu hududda ko'plab savdo yo'nalishlari tutashgan, turli sivilizatsiyalar o'rtasida o'zaro muloqot va

¹ www.wikipedia.org. 06.04.2017

hamkorlik aloqalari amalga oshirilgan. Bugungi kunda ham O‘zbekiston magistral temir yo‘l tarmoqlari orqali Sharq va G‘arb, Janub va Shimolni birlashtiradigan salmoqli transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatiga ega.

Mamlakatimizda temir yo‘l transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va mustahkamlash, temir yo‘l tashuvlarining ishonchlilik va xavfsizlik darajasini oshirish bo‘yicha “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasi tomonidan olib borilayotgan ishlarni alohida qayd etish zarur. Keyingi yillarda temiryo‘lchilarimizning kuch-g‘ayrati bilan 1 ming 100 kilometrdan ziyod yangi temir yo‘l tarmoqlari barpo etildi, 3 ming 800 kilometrlik yo‘l modernizatsiya qilindi va qaytadan ishga tushirildi, qariyb 1000 kilometrlik temir yo‘l magistrallari elektrlashtirildi. Ana shunday katta ishlarimiz natijasida temir yo‘llarning umumiy uzunligi 6 ming 500 kilometrga yetdi va ular respublikamizning barcha mintaqalarini qamrab olish imkoniga ega bo‘ldi.

Amudaryo uzra avtomobil va temir yo‘l qatnovi uchun mo‘ljallangan zamonaviy ko‘priknı o‘z ichiga olgan Navoiy-Uchquduq-Nukus-Sulton Uvaystog‘ va Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on yangi temir yo‘l magistrallarining ishga tushirilishi mamlakatimizni uzoq istiqbolni ko‘zlagan holda, barqaror rivojlantirish yo‘lida strategik ahamiyatga egadir.

Yaponiyaning Xalqaro hamkorlik banki ishtirokida murakkab tabiiy va iqlim sharoitlarida barpo etilgan, dengiz sathidan 1 ming 500 metr balandlikda joylashgan tog‘ dovoni orqali o‘tadigan 223 kilometr uzunlikdagi Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on yangi temir yo‘li mohiyat e‘tibori bilan Markaziy Osiyoda o‘xshashi bo‘lmagan noyob inshoot hisoblanadi¹.

Yangi temir yo‘l magistrallarining ishga tushirilishi mamlakatimizning shimoliy va janubiy mintaqalarining iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlantirish, mineral resurslar, neft va gaz, rangli metallar, qurilish materiallari va boshqa qimmatbaho foydali qazilmalarning boy konlarini kompleks o‘zlashtirish uchun, hech shubhasiz, katta imkoniyatlar ochadi. Bu esa o‘z navbatida yangi ish

¹ www.railway.uz. 06.05.2017

o‘rinlarini shakllantirish, shu asosda aholi bandligini ta‘minlash, odamlarimizning daromadlari va moddiy farovonligini oshirish uchun sharoit yaratishga qanday muhim hissa qo‘shishini, o‘ylaymanki, izohlab o‘tirishning hojati yo‘q.

Biz transport kommunikatsiya sohasidagi yana bir yirik inshoot, ya‘ni 19 kilometrlik temir yo‘l tunnelini o‘z ichiga oladigan Angren-Pop yo‘nalishidagi yangi elektrlashtirilgan temir yo‘l tarmog‘ini xitoylik hamkorlarimiz bilan birgalikda barpo etishga katta istiqbolga ega bo‘lgan muhim loyiha sifatida qaramoqdamiz.

Ushbu temir yo‘l tarmog‘ining 2016-yil iyul oyida ishga tushirilishi Farg‘ona vodiysi viloyatlarini O‘zbekistonning markaziy qismi bilan ishonchli tarzda bog‘lashga imkon yaratadi, respublikamizning butun hududi bo‘ylab yagona temir yo‘l transport tizimini shakllantirish borasidagi ishlarni yakuniga yetkazadi, Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa yangi xalqaro tranzit temir yo‘l koridorining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi.

Transport xizmatlarining darajasi va sifatini oshirishda temir yo‘l parkining harakatlanadigan tarkibini eng zamonaviy, yuksak samarali lokomotivlar va har tomonlama qulay vagonlar bilan yangilash bo‘yicha ishlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina so‘nggi o‘n yilda 38 ta zamonaviy elektrovoz va 10 ta yo‘lovchi tashish teplovozi sotib olindi, 150 ta lokomotiv modernizatsiya qilindi.

Ispaniyaning “Talgo” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan, zamonaviy, yuqori tezlikda harakatlanadigan “Afrosiyob” elektropoyezdi O‘zbekistonning g‘urur-iftixori hisoblanadi. Shuni aytish joizki, bunday poyezdlar dunyoning atigi sakkizta mamlakatida mavjud. Bugungi kunda ushbu poyezd har kuni Toshkent-Samarqand-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha 344 kilometrlik masofani bor-yo‘g‘i ikki soatda bosib o‘tmoqda. Bu esa

odamlarimizning ana shu transport turiga bo'lgan munosabati va qarashlarini tubdan o'zgartirmoqda¹.

Yurtimizda 11 ta yangi temir yo'l vokzali barpo etilishi va 7 ta vokzalning rekonstruksiya qilinishi natijasida ular butunlay yangicha qiyofa kasb etdi. Mazkur vokzallar yo'lovchilarga eng yuqori xalqaro standart va talablar darajasida xizmat ko'rsatish imkonini beradigan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganini qayd etish lozim.

O'tgan yillar mobaynida temir yo'l transporti kommunikatsiyalarini rivojlantirish va tegishli infratuzilmalarni obodonlashtirishga 6 milliard dollardan ortiq kapital qo'yilmalar, jumladan, 1,8 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar yo'naltirildi.

Kompaniyaning yo'l xo'jaligi, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" ochiq aksiyadorlik jamiyati yo'lovchilar tashish bo'linmasi va "O'ztemiryo'lkonteyner" yuk tashish tuzilmasi, shuningdek, qurilish tashkilotlari va boshqa tarkibiy qismlari mamlakatimiz temir yo'l tizimini rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko'rsatishiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Kompaniya tashkil etilgan kundan buyon yuk tashishlar 1,5 barobar, yo'lovchi tashish esa 1,3 barobar ko'paygani, temir yo'llar orqali 1 milliard 400 million tonna yuk tashilgani va 350 million yo'lovchi o'z manziliga yetkazilgani uning salohiyati va imkoniyatlari tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi².

Bugungi kunda temir yo'l tarmog'ining jadal rivojlanayotgan, yuksak texnologiyalarga asoslangan Toshkent yo'lovchi vagonlarni qurish va ta'mirlash zavodi, Quyuv-mexanika zavodi, "O'ztemiryo'lmashta'mir" unitar korxonasi kabi sanoat korxonalari haqli ravishda kompaniyaning bayroqdorlari va iftixori hisoblanadi. Ular Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlari

¹ I.A.Karimov, "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat –aksiyadorlik kompaniyasi jamoasiga Prezident tabrigi.
www.mfa.uz 06.11.2014.

² O'sha manba. (davlat rahbarining tabrigidan)

va boshqa yetakchi xorijiy kompaniyalarning zamonaviy asbob-uskunolari va yangi avlod texnologik tarmoqlari bilan jihozlangani ayniqsa e'tiborlidir.

Mazkur korxonalarda lokomotiv va yo'lovchi vagonlarini ta'mirlash, modernizatsiya qilish va qayta jihozlashdan tashqari, qisqa vaqt ichida o'zimizning vagonsozlik sanoatimizga muvaffaqiyatli asos solindi va bu yerda 2,5 mingta yuk va 150 ta yangi yo'lovchi vagonlari ishlab chiqarildi, 735 ta yo'lovchi vagonlari modernizatsiya qilindi.

O'z tarkibida yuqori malakali 70 ming nafar injener-texnik xodimlar va mutaxassislarni, yo'lsozlar, mashinistlar, sanoat va qurilish korxonalari, ijtimoiy infratuzilma obyektlarining ishchi va xizmatchilarini birlashtirgan ahil mehnat jamoasi kompaniyaning bebaho boyligi, oltin fondi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Sizlarning fidokorona mehnatingiz, bilim va tajribangiz xalqimiz orasida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'lib, har tomonlama hurmat va ehtiromga munosibdir.

Barchamizga ayonki, kompaniyaning, butun temiryo'l tarmog'ining kelajagi avvalo sohaga zamonaviy bilimga ega, ilg'or texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, o'z kasbiga sodiq, Vatanimizga farzandlik mehri bilan yashaydigan yosh mutaxassis va ishchilarni keng jalb etish bilan bevosita bog'liqdir. Yurtimizdagi oltita kasb-hunar kolleji va Toshkent temiryo'l transporti institutini har yili uch mingdan ziyod yosh mutaxassislarni aniq kasb yo'nalishi bo'yicha bitirib chiqib, hayotga yo'llanma olayotgani mamlakatimiz temiryo'l transportining kelgusi taraqqiyoti uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda temiryo'lchilik kasbi mamlakatimizda yoshlar o'rtasida qiziqish va talab eng katta bo'lgan, sharaflilik kasbga aylanganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Umuman olganda, O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi sohada yurtimiz istiqlolyillarida erishgan yutuqlarini namoyon etadigan yirik tashkilot. U yurtdoshlarimiz va xorijdan kelgan mehmonlarga xizmat ko'rsatadi. Shu bois mazkur kompaniya o'zi haqidagi ma'lumotlarni

turli OAV kanallari orqali yoritib borilishidan manfaatdor. Hozirgi paytda kompaniya faoliyati ko'plab OAVda ba'zi holatlarda, "Temiryo'lchi" gazetasi va kompaniyaning internet saytida uzluksiz yoritib kelinmoqda.

1.2. "Temiryo'lchi" gazetasi tarmoq nashri sifatida

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari gazeta, jurnal, radio va televideniye, onlayn nashrlar, axborot agentliklari kabi ko'rinishlaridan iborat bo'lib, ular o'rtasida an'anaviy va onlayn nashrlar ham muhim o'rin egallaydi. «Gazeta ommaviy axborot vositalarining asosiy turlaridan biri bo'lib, jamiyatning shu kundagi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy ishlab chiqarish va madaniy-ma'naviy hayoti aks ettiradi, hamda ommani bo'layotgan voqea-hodisalardan xabardor qilib turadi. Gazeta jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, shu kunning tarixini to'laligi bilan aks ettiradi».¹

Shuningdek, gazeta umuminsoniy madaniyatning hosilasi va uni taraqqiy ettiruvchi muhim omildir. Gazeta jamiyatdagi uch ijtimoiy tuzilma – qonun chiqaruvchi, sud va ijro hokimyatidan keyin «to'rtinchi hokimiyat sanaluvchi matbuotning asosiy o'zagi hisoblanadi. U vaqtli matbuotning eng qulayi hamdir. Shuning uchun ham gazeta ommaviy axborot vositalari orasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Uning ommaviy axborot vositalari tasnifida bosh o'rinni egallalshining boisi hayotning barcha sohalarga aralashishi va chuqur kirib borishida hamdir. Unda ijtimoiy-iqtisodiy hayot tezkorlik bilan va har taraflama o'z aksini topadi.

«Milliy mustaqillikka erishgan respublikamizda gazetachilikka katta e'tibor berilmoqda. O'zbek gazetachiligi ham son, ham sifat jihatidan o'sdi, takomilga erishdi».²

¹ "Ommaviy axborot vositalari texnologiyasi" T.: 2000 12- bet

² Ommaviy axborot vositalari texnologiyasi" T.: 2000 (ma'ruzalar matni)14-15- bet

O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan markaziy gazetalar ommaga keng miqyosida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va sport va boshqa sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishda muhim ro'l o'ynamoqda. Ayni zamonda, gazeta jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy ishlab chiqarishga asosiy e'tibor qaratmog'i, ko'proq axborot bilan shug'ullanmog'i lozim.

«Gazeta matbuotning bosh tamoyillari umuminsoniylik, xalqchilik, milliylik, xaqqoniylik va boshqa qoidalarga ham bo'ysunib ish ko'rishi zarur. Gazetalar uch turga bo'linadi: 1. umumsiyosiy gazetalar 2. ixtisoslashgan gazetalar. 3. tarmoq gazetolari»¹.

Malakaviy ishning asosiy obyektlaridan biri bo'lgan **“Temiryo'lchi”** gazetasi tarmoq nashrlar turiga kiradi. Bunday nashr turi jamiyat hayotining alohida bir sohasini kengroq yoritishi uchun maxsus chiqariladi hamda ana shu sohada ishlovchi, shu sohaga aloqador kishilar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bu xil gazetalar umumsiyosiy gazetalardan farqli ravishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarini yoritgani holda o'zi ixtisoslashgan sohani keng va batafsil yoritadi. **““Temiryo'lchi””** gazetasi sohaning muhim masalalarini, mamlakatimizda keng qamrovda amalga oshirilayotgan temir yo'l sohasidagi islohotlarni yoritgan nashr turidir. Bu kabi nashrlar jamiyat hayotining faqat ayrim tomonlarini yoritib, umumsiyosiy gazetalarini to'ldirib boradi. **““Temiryo'lchi””** markaziy gazetalar sirasiga kiradi.

Tarmoq gazetasi mamlakat temir yo'l tarmog'ini kengroq yoritish uchun nashr etiladi. Bunday gazetalar, odamda, biror-bir maqomdagi soha bo'yicha vazirlik yoki shu maqomdagi tashkilot tomonidan chiqariladi «Temiryo'lchi» gazetasi “O'zbekiston temir yo'llari” davlat aksiyadorlik jamiyatining haftalik nashri hisoblanadi. Gazeta, asosan temiryo'l sohasida ishlovchi kishilar uchun mo'ljallangan.

¹ M. Xudoyqulov OAV nazariyasi. T.: 1999, 26-bet

«Temiryo'lchi» gazetasini O'zbekistonda o'zbek va rus tillarida aralash chiqadigan gazetalardan biri. «Temiryo'lchi» gazetasi A-2 formatda 4 sahifada chop etiladi.

Muassislar: "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati, O'zbekiston temiryo'lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi.

«Temiryo'lchi» gazetasi – yoshi ulug' nashrlardan. U 1933-yildan beri chiqadi. Temir yo'lning har bir viloyatidagi tarmog'ida bittadan muxbiri bor. Tahririyat bosh muharriri Mirzo Murotov bilan birgalikda 11 nafar jurnalist faoliyat yuritadi.

Guvohi bo'lganimizdek, «Temiryo'lchi» gazetasi katta tarixiy yilni bosib o'tgan, katta tajriba ottirgan nashrdir.

«Temiryo'lchi» gazetasi temir yo'l transporti tarmog'ining va unda faoliyat yurituvchi xodimlarning kundalik hayotini yoritish, poyezdlar harakati xavfsizligini tahlillashga hissa qo'shishga ixtisoslashgan. Gazetaning mustaqillik yillarida temir yo'l sohasidagi islohot tamoyillarini chuqur anglab, bu sohada temir yo'l tarmog'inig amalga oshirayotgan keng ko'lamdagi faoliyatini yoritishda o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan eng asosiysi – bu mazkur islohotlarning qay darajada borayotganini tahlil qilishdan, bu ishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni atroflicha yoritishdan iboratdir. Gazeta o'z sahifalarida bu muammolarni aks etirish barobarida yuzaga kelgan vaziyatlardan chiqish yo'llari yuzasidan respublika rahbariyatining tarmoq faoliyati qayta ko'rish haqidagi tashabbusi natijasida yuzaga kelgan imkoniyatlarga alohida e'tiborini qaratadi. Bu-xorij investitsiyasini jalb qilish, modernizatsiya va rekonstruktsiyalashni amalga oshirishdan iborat tajribadir.

Mamlakat xalq xo'jaligining boshqa sohalari singari temir yo'l transporti tizimiga hukumat kafolati yo'li bilan mustaqillik yillarida katta hajmdagi xorijiy sarmoyalar kiritildi va bu ish davom ettirilmoqda.

Xususan, jahondagi yirik moliya muassasalaridan biri sanalgan Osiyo taraqqiyot bankining «Temir yo'llarni rekonstruksiyalash» dasturi doirasida Kelesdan Samarqangacha bo'lgan masofada qayta kapital ta'mirga muhtoj yo'llar tub yangilanmoqda. Bundan tashqari, yana bir nufuzli xalqaro moliya muassasasi sanalgan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining «Lokomotiv parkini yangilash» hamda «Dizel lokomotivlarini modernizatsiyalash» singari ikkita yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Respublika hukumati, transport tizimini monopoliyadan chiqarish va yanada takomillashtirish haqida keyingi uch-to'rt yil ichida muhim hujjatlar qabul qildiki, tarmoqdagi islohotlarning qay darajada muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan ushbu qarorlarning ijrosiga bog'liq.

Yuqoridagi omillardan ko'rinadiki, «Temiryo'lchi» gazetasi uchun yoritishga arzirli keng mushohada va munozara yuritishga yetarli mavzular istalgancha mavjud. «Elga xizmat – oliy himmat», «Jarayon», «Jamiyat», «Madaniy-ma'rifiy sahifa», «Bir korxona faoliyati», «Temiryo'lchi» ажнейших стройках», «Dolzarb mavzu», «Анализ» kabi doimiy ruknlar ostida gazeta tamog'ining o'z oldiga qo'ygan uzoq muddatli, muhim davlat dasturini bajarish yo'lidagi faoliyatini tahlil qiladi, o'quvchilarni munozaraga chorlaydi.

Gazeta iqtisodiy mavzudagi materiallarni chop etarkan, huquq-tartibot idoralari vakillariga ham tez-tez murojaat qilib, iqtisodiy qonunbuzarlik holatlarini yoritish, tahlil etish tajribasini ham keng qo'llab keladi.

«Temiryo'lchi» gazetasi respublika miqyosida temir yo'l sohasidagi islohotlar borasida olib borilayotgan ishlarni yoritadi. Gazeta ilk sahifasining chap burchagida «Bir hovuch dur» rukni ostida buyuk insonlarning fikrlari berib boriladi, ammo ularning mualliflari hech bir sonda domla va talabalar o'z maqolalari bilan qatnashib turadi.

«Temiryo'lchi» temir yo'l sohasidagi islohotlar mavzusini yoritar ekan, yuz berayotgan islohot bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar ham gazetaning nazaridan chetda qolmayotgani quvonchli hol, uy-joy tijoratlarining aholiga

ko'rsatayotgan kommunal xizmatlari, uning sifati va saviyasiga baho berish, mavzunu tahlil qilish ancha mushkul vazifa. Shunga qaramay, ayrim matbuot nashrlarining mazkur masalaga murojat etayotganini tan olish kerak. Bular ma'ishiy xizmat ko'rinishlarida, yani u yoki bu fuqarolarning tahririyatga yozgan shikoyat va arizalari sababli paydo bo'layotgan yaqqol ko'zga tashlanadi. Alohida bu sohadagi islohotlarning borishini bevosita va atroflicha tahlil qilish hollari kam uchraydi. Ushbu masalaning aksariyat fuqarolar kundalik hayotiga bevosita dahldor ekanligini e'tiborga olsak, mavzuning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ayon bo'ladi. Mamlakatimizda chop etilayotgan boshqa nashrlardan farqli o'laroq «Temiryo'lchi» gazetasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan temir yo'l sohasidagi islohotlari yoritishda faollik va izchillik ko'rsatayotgani e'tiborlidir. O'zbekiston o'z mustaqilligining 26-yilligiga odimlayotgan ekan, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini nafaqat yurtdoshlarimiz, balki jurnalistlar uchun ham yangilikdir. Hali u yoki bu sohadagi islohotlarning qanday samara berayotganini to'laligicha tahlil etish, uning yutuq va kamchiliklarini, muammolarini, o'ziga hos qirralarini to'laligicha ochib berish jurnalistlar tugul, eng ma'lakaviy olim va mutahassislar uchun ham ma'quldir»¹

Biroq shunga qaramasdan, zikr qilayotgan mavzunu mukammal tahlil etish, islohotlarning xalq va jamiyat hayotida tutadigan o'rmini islohot orqali mamlakat hayotida qanchalik ijobiy o'zgarishlar yuz beshi mumkinligini keng ommaga yetkazish matbuotning birinchi galdagi vazifasidir.

«Boshqacha qilib aytganda, yurtdoshlarimizni O'zbekistonning ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligidan habardor etish islohotlar orqali respublikamizda yuz berayotgan temir yo'l sohasidagi islohotlarning borishi haqida kenroq va to'laroq ya'ni bozor iqtisodiyotining o'zbeqona usulini

¹ «Iqtisodiy bilim asoslari» (o'quv qo'llanma) T., 2002, 48-bet

bosqichma –bosqich olib borilganidan voqif etish matbuot va ommaviy axborot vasitalari oldida turgan ijobiy, jiddiy vazifalardan biridir»¹

Demakki, ushbu vazifaning qay darajada muvaffatsiyatli amalga oshirilishga ulush qo'shish «Temiryo'lchi» gazeta ijodiy jamoasinig ham ma'sulyatli burchidir. «Temiryo'lchi» gazetasining eng birinchi navbatda ko'zga tashlanadigan kamchilik undan haddan ziyod reklama, e'lonlarining ko'pligi. «Reklama va e'lonlarining haddan ziyod oshirib yuborilishi o'quvchining ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Reklama beruvchilar esa ko'pincha gazetada e'lonni o'quvchini jalb qilish maqsadida katta hajmda berilishini istaydilar. Bunday tushuncha ko'p hollarda xato bo'lib chiqadi. «²

«Tajriba shuni ko'rsatadiki, gazetani 20 daqiqa ichida qarab chiqqan o'quvchilarning 35 foizi sarlavhasi olti so'zdan oshmagan matnlarni eslab qolishadi. Aksincha, sarlavha va matn uzun bo'lib ketishi o'quvchining 11 foizga kamayishiga olib keladi»³. Ammo shuni ham aytib o'tish joizki, bugungi kunda bu kabi iqtisodiy nashrlar reklama va investitsiyalar hisobiga kun ko'radi. Sababi, bu kabi nashrlarning auditoriyasi kamchilikni tashkil qiladi»⁴.

Oddiy gazetxon gazetadagi atamalarga to'la maqolalarini tushuna olmaydi. Bu juda mushkul jarayon. «Lizing», «Korporativ mulk», «Xususiy sektor» kabi so'zlar hayotga shiddat bilan kirib kelgan bo'lsada, oddiy odamlar tugul ba'zi ziyolilar ham ularning ma'nolaridan hali to'la xabardor emas. Oddiy aksiyador ham «Korporativ mulk» u egalik qilayotgan aksiyaning boshqacha nomi ekanligidan mutlaqo bexabar. Agar maqola ichida bu kabi atamalarga qisqacha ta'riflar berib o'tilsa, foydadan holi bo'lmas edi. Aks holda, gazetxon bu kabi qiyin sarlavhani o'zidanoq maqolani o'qimasligi mumkin.

«Har qanday nufuzli nashr tezkor axborot bo'limiga ega bo'lishi kerak. Ulardagi reportyorlarning asosiy vazifalari esa turmushning barcha jabhalardan

¹ Karimov I.A. Iqtisodiy islohot mas'uliyati bosqich. T., 1994, 124- bet

² Volkova V.V. Reklama v gazete. (avtoreferat)M: 1997

³ Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. (o'quv qo'llanma T., 2002)128-bet

⁴ «OAVda reklama: nazariya va amaliyot»T.;2000 19-bet (ma'ruzalar matni)

yangi xabarlarini izlash, topish, yozish va tarqatishdan iborat. Bu hil axborotlar «Kun yangiliklari», «Kecha, bugun, ertaga», «Voqealar tafsiloti», «jahonda nima gap»ruklari ostida alohida berilishi kerak»¹.

Ammo bunday bo'lim, malakaviy ishda tahlil qilanayotgan gazeta tahririyatida mavjud emas. Bu esa gazetani o'quvchilarni jalb etuvchi katta imkoniyatlardan mahrum etgan. Axborot bo'limlarining tashkil etilishi, auditoriyaga kunning dolzarb voqea va hodisalarining o'z vaqtida yetkazib berishi har bir zamonaviy nashrning vazifasidir.

«Temiryo'lchi» gazetasining o'ziga xos jihati shundaki, unda doimiy «Aks-sado» sahifasi mavjud. Ruknda mutasaddi, yuqori tashkilot va idoralar rahbarlar qabuliga kira olmagan shaxslarning shikoyatlari, jurnalistlar tomonidan o'rganib chiqiladi, shundan so'ng to'laligicha matbuot sahifasida yoritiladi. «Ijtimoiy hayot», «soliq tizimi», «Bank tizimi», «munosabat», «nuqtai nazar», «mehmon» kabi ruknlar «Temiryo'lchi»da doimiy ravishda mavjud.

«Vatanimiz qudratining ortishi, xalqimiz turmush farovonligining yuksalishi bevosita temir yo'l sohasidagi islohotlarning samarasiga bog'liqdir. Bu o'rinda kichik va o'rta biznesning har tomonlama rivojlanishini hususiy sektorning bir maromda o'sib borishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Chinakam, izlanayotgan tadbirkorlarni o'z vaqtida rag'batlantirish nafaqat hukumat idoralarining, balki jurnalistlarning ham burchidir. Buni esa ularning faoliyatini muntazam yoritish bilan amalga oshirish mumkin»². Bu ishni «Temiryo'lchi» gazetasi haqida aytish mumkinki, yetarli darajada bajarib kelyapti.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov; «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o'zaro mutonosib, to'laqonli iqtisodiyot bilan

¹ Voroshilov V.V. Jurnalistika. Sank-Peterburg: 1999., 95-bet.

² Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.:1995 240-bet

mustahkamlanmas ekan, u bor-yo'g'i quruq gaplar, sohta obru-ortirish vositasiga aylanib qolaveradi». ¹

«Bunga yo'l qo'ymaslikka «To'rtinchi hokimyat» vakillari, ommaviy axborot vositalari bor kuchi bilan harakat qilishlari kerak. Biz bozor iqtisodiyotiga katta sakrashlar, tubdan vayron qilish yo'li bilan emas, balki bir bosqichdan ikkinchi bosqichga ketma-ket o'tish, ya'ni evalutsion tarzda ilgari lab borishni o'zimiz uchun qat'iy tanlab olgan ekanmiz. Har bir bosqichda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasining har birini ommaviy axborot vositalari muntazam yoritishlari muhimdir». ²

Temir yo'l sohasidagi islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Avval boshdanoq biz o'zimiz uchun muhim saboq chiqarib. Zaruriy huquqiy omilni shakllantirmasdan turib, tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini, islohotlar ortga chekinmasligining kafolatini amalda yoritib bo'lmaydi. «Temiryo'lchi» gazetasida e'lon qilinayotgan maqolalarda yana shunday qaror va qonunlar isbot tarzida keltirib o'tiladi.

«Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin.

Qabul qilinayotgan barcha qonunlar, me'yoriy hujjatlar matbuotda, jumladan «Temiryo'lchi» nashrida ham bosilib chiqmoqda, televideniye orqali, gazeta nashrlari va boshqa ommaviy axborot vositalarida yoritilmoqda va aholining g'oyat keng qatlamlarida yetkazilmoqda. Muhim masalalar bo'yicha ularni omma ongiga yetkazishda hukumat a'zolari, deputatlari, olim va mutaxassislar qatnashmoqdalar.

¹ Karimov I. A. OAV haqida (maxsus risola) T.: 1997, 178- bet

² Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlari T.: 1993 67-bet

Umuman olganda, “Temiryo’lchi” gazetasi ko’p yillardan buyon O’zbekiston temir yo’llari aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini yoritish barobarida yurtimizda mazkur sohadagi o’zgarishlar va taraqqiyotni xalqimiz kishilariga yoritib kelmoqda.

1.3. www.railway.uz - “O’zbekiston temir yo’llari” AJ veb-sayti tahlili

Hozirgi vaqtga kelib, saytlar soni borgan sari ortib bormoqda, “har bir inson o’z saytiga ega bo’lish uchun harakat qilmoqda”, desak xato bo’lmasa kerak. Shunday bo’lishiga qaramasdan, sifatli saytlar soni juda sekinlik bilan orttib boryapti. Ha sekinlik bilan, chunki hozirgi kunda sayt yaratilib, keyinchalik saytni tashlab ketish odat tusiga kirdi(domen va xost vaqti tugaydi, qarabsizki sayt yopildi).

Saytlar haqida gap borar ekan, ular haqida ko’proq ma’lumot berishga harakat qilaman. Sayt — bu umumiy tushuncha bo’lib, uni ko’rinishi, bajaradigan vazifasiga qarab bir necha turlarga bo’lish mumkin. Maqola aynan sayt turlariga bag’ishlanadi.

Sayt ko’rinishlari (turlari).

— **internet orqali tanishtiriluvchi saytlar;**

— **axborot resurslari;**

— **veb xizmatlar;**

Bu turlar asosiylari hisoblanib, o’z navbatida bular ham ma’lum qismlarga bo’linadi.

Intrenet orqali tanishtiriluvchi saytlar:

— vizitka saytlari;

— korporativ saytlar;

— internet do’konlar;

— promo saytlar.

Axborot resurslari:

— tematik saytlar;

— internet portallar;

— bloglar;

— saytlar ro’yxati.

Veb xizmatlar:

- qidiruv tizimlari;
- pochta xizmatlari;
- internet forumlar;
- video, rasm, audio
- e'lonlar doskasi;
- ijtimoiy tarmoqlar.

xostinglar;

Har bir veb-saytning yaratilishidan oldin uning funktsionalligi ustida mulohaza qilib ko'rish kerak. Zero, saytning tuzilishi avvalo unga yuklatilgan vazifalar bilan belgilanadi. Eng oson yo'l saytdagi turli bo'linmalar orqali uning to'liq mazmunini, tashqi ko'rinishini shakllantirishdir. Ammo bunday saytning yaratilishi oxir-oqibat ommabop emas, balki bir kompaniya uchun mo'ljallangan veb-sahifaning shakllanishiga olib keladi. Sayt foydalanuvchilarini ko'p holatlarda (agar ular biror kompaniya saytiga kirsalar) kompaniyaning ichki tuzilishi ularni mutlaqo qiziqitirmaydi. Shuning uchun ham saytni «daraxt» tuzilishida, ya'ni asosiy sahifa (ustun), kichik bo'limlar (shoxlar), kichik bo'limlar orqali ruknlarga kirish (barglar) va xokazo ko'rinishda yaratgan ma'qul. Bu erda faol navigatsiya tamoyillaridan foydalanish qo'l keladi.

Saytlar mazmuniga qarab ularni bezatish qonuniyatlari quyidagilardir¹28:

- Oddiylik veb-sahifa dizaynining asosiy maqsadiga aylanishi lozim;
- veb-sahifa dizayni uning mazmuni bilan hamoxang bo'lishi kerak;
- veb-sahifa ko'p platformada faoliyat yuritishini ta'minlash kerak.

Shundagina eski texnologiyalardan foydalanuvchi foydalanuvchilar ham unga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- har qanday veb-sahifaning asosiy maqsadi – ma'lumot uzatishdir. Dizayn esa aynan ana shu ma'lumotni olishga yordam berishdir.

- navigatsiya elementlari zaruriyat bo'lsada, ulardan foydalanishni iloji boricha kamaytirish kerak;

¹ М.Зуев. Спецификация HTML™ 1.0: The Extensible HyperText Markup Language.

- har qanday interfays dizaynining umumiy tamoyili – dizaynning barcha elementlarini ko'rib chiqish va ularni ketma-ketlikda uchirish. Agarda dizayn ma'lum bir elementlarsiz buzilmasa, demak ulardan voz kechmoq kerak;

-har bir sahifaga mazkur sahifa tegishli bo'lgan kompaniyaning logotipi joylashtirilib, bosh sahifaga silka bilan o'tishni ta'minlash;

-vab-sahifalarda hali sinovdan o'tmagan yangi texnologiyalarning qo'llanilishi ham oxir oqibatda uning faoliyatining to'xtalishiga olib kelishi mumkin¹.

Demak vab-sahifa:

- ruknlarga bo'lingan xolda yaratilishi

- navigatsiya elementlarining qulayligi

- sahifa interfaysi chiroyliligi

Kontentini (mazmuning) boyligi va tushunarlilik bilan ajralib turishi kerak.

Saytlar turiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Vizitka

Biror bir kompaniya haqida ma'lumot beruvchi sayt.

2. Katalog (sayt-vitrina)

Magazinlar, tovarlar, xizmatlar, narxlar, agentliklar tomonidan takliflar xususida ma'lumot beradi. Ammo savdo Internet orqali amalga oshirilmaydi. Bunday saytlarning asosiy maqsadi mijozlarni jalb etish.

3. Elektron magazin

Biznes jaraynlarni amalga oshiradi, Internet orqali maxsulotlarni sotadi, xizmatlarni taklif etadi.

4. Promo-sayt

Tovarlarni reklama qiladi.

5. Axborot sayti

OAVlarning elektron varianti, Internet nashrlar.

¹ Калмыков А. А., Коханова Л. А. Интернет-журналистика. Учебное пособие. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.-С.49

6. Korporativ sayt

Kompaniya faoliyatini kengaytirishga mo'ljallangan. Uning tarkibida elektron magazin ham bo'lishi mumkin. Shuningdek, mazkur sayt orqali elektron hujjatlar almashinuvi, Internet-muzokaralar olib boriladi.


6. Portal

Portal (portal) – so'zma-so'z tarjimasiga ko'ra «darvoza» ma'nosini bildiradi. Boshqa Internet sahifalardan farqli o'laroq, veb-portal o'zida bir necha saytlarga teng manbalarni birlashtiruvchi yirik resurs hisoblanadi. Bunday informatsion resursni tashkil etgan muassislar odatda unga bir necha vazifani yuklaydi. Xususan, portal o'quvchini alohida mavzular bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun o'z ichiga qamrab olingan tarkibiy manbalariga yo'naltiradi. Portallar hech qachon monotematik, ya'ni bir mavzu bilan cheklanmaydi. Ularning xususiyati aynan, politematik resurs sifatida o'quvchiga kompleks ma'lumot berishdir. O'z navbatida ular qidiruv, korporativ, informatsion portallarga bo'linadi¹.

www.railway.uz - “O'zbekiston temir yo'llari” AJ veb-sayti ushbu tasnifda korporativ saytlar sirasiga kiritilishi mumkin.

Saytning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

¹ Қосимова Н.С. Интернет журналистиканинг технологик асослари. Т., 2012, 24-бет.



Yuqori qismi kulrang bo'lib, unda saytning yirik tarkibiy qismlari ro'yxati keltirilgan. Bu qismlar: "Axborot xizmati", "Xodimlar bilan ishlash", "Kasaba uyushmasi", "Ochiq ma'lumotlar" deb nomlanadi.

Saytning eng e'tiborli jihati uning kompyuter ekraniga mo'ljallangan ko'rinishi, "Mobil talqini" va "Sayt xaritasi" qatorida "Zaif ko'ruvchilar talqini" ham mavjud bo'lib, bu sayt uslubini boshqa davlat tashkilotlarining axborot sayt va portallari o'rgansa, yaxshi bo'lardi. Chunki mazkur "talqinda rangsiz, lekin chizmalar va yozuvlar oq-qora shaklda sayt bilan to'liq tanishish, uning ma'lumotlarini o'qish mumkin.


Yuqori qismidan keyin sutsimon (qaymoqrang) fonli sayt bo'limia kompaniya nomi, ishionch telefoni va qo'ng'iroq qilish kun va soatlari, kecha-yu kunduz ishlaydigan vokzal ma'lumotxonasi raqami, saytning uch tildagi ko'rinishi ochishni ta'minlaydigan interfaol tugmalar joylashgan. Ularning ostida shu bo'limda saytning asosiy ruknlari keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar:

Biz haqimizda. Mazkur bo'lim internet foydalanuvchisiga "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining qisqacha tarixi, jamiyatning asosiy faoliyat yo'nalishlari, jamiyat uchun asosiy ustivor yo'nalish bo'lgan amalga oshirilishi rejalashtirilgan sarmoyalar va ishlar, loyihalar, shu davrgacha


erishgan yutuqlari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining ish kuni tartibi jadvali haqida ma’lumot beradi.

Bu bo‘limning chap tomonida ustun (kolonka) ajratilgan bo‘lib, unda sayt foydalanuvchilari ovoz berishlari uchun “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining rasmiy web saytida yoritilayotgansahifalar sizni qoniqtirayaptimi?” – degan so‘rovnoma (tanlash uchun ha , yo‘q degan interaktiv tugmasi bilan), “savollar va javoblar” rukni (bu rukn ostida “Elektron chiptani qanday harid qilish mumkin?”, “Bolalarga qanday chegirmalar mavjud?” ,“T/y chiptalarini olishda qanday imtiyozlar mavjud?”, “Talon o‘rniga va guvohnomani taqdim etish bilan bir yilda bir marta temir yo‘l orqali sayohat narhidan 50%li chegirma huquqi beriladi” kabi savol va e‘lonlar bor), undan quyida “Eng so‘nggi yangiliklar” ruknlari mavjud¹.

Bu ruknning o‘zida “O‘zbekiston Respublikasi transport kommunikatsiyalari”, “O‘zbekiston temir yo‘llari rivojlanish strategiyasi”, “Xalqaro faoliyat”, “Aloqa ma’lumotlari”, “Statistik ma’lumot”, “Boshqa organlar bilan hamkorlik” kabi qator ichki ostki ruknlar ham mavjud.



¹ “Biz haqimizda” ruknidagi imloviy xatolar, jumladan, “harid”, “narh”, yoki “qoniqtirayaptimi” kabilar oz‘holicha berildi. Ularni sayt jurnalistlari tuzatib qo‘yishsa foydadan xoli bo‘lmas edi.




Ko'rinadiki, bu ruknlar bilan tanishib chiqsangiz, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tarixi va buguni, faoliyati haqida batafsil va raqam va chizmalarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Xizmatlar. Mazkur bo'lim ostida "Yo'lovchilar tashish", "Yuklar tashish", "Konteynerlar tashish", "Temir yo'ldagi turizm" kabi qator katta ostki ruknlar mavjud bo'lib, ularning har biriga kirib, o'sha mavzu bo'yicha faktlar bilan to'yingan maxborot olish mumkin.

Korporativ boshqaruv. Mazkur bo'limda "E'lonlar", "O'zbekiston temir yo'llari" AJning investitsiya siyosati", "Biznes reja", "Korporativ boshqaruv bo'yicha jamiyatning ichki hujjatlari", "Auditorlik tashkilotining xulosasi", "Sotib olingan aksiyalar haqida ma'lumot", "Xorijiy investorlarga" singari ostki ruknlar mavjud.

Qonunchilik bazasi. Bu bo'limda Temir yo'l transporti haqidagi qonunlar, farmoyishlar, qarorlar o'rin olgan.

Interaktiv xizmatlar. Bu bo'limda “Onlayn qabulxona”, “Tez-tez beriladigan savollar”, “Onlayn chiptalar sotib olish”, “Yo'lovchi poyezdlar jadvali”, “O'zbekiston Respublikasi temir yo'llari chizmasi”, “xavfsizlik alifbosi”, “O'zbekiston davlat timsollari”, “Onlayn obuna” ostki ruknlari mavjud.



Saytning asosiy “oyna qismida almashinib turadigan va kompaniya binosi va ofislari, poyezdlari, temir yo’llarini o’zida aks ettirgan fotolar qatori mavjud bo’lib, bu saytning ko’rinishini yaxshilab turibdi. Qolgan qismlar asosan matnda terilgan.

Fotogalereyaning ostida “Jadval”, “Temir yo’l chizmasi”, “Chiptalar xarid qilish” degan ruknlar mavjud bo’lib, mazkur ruknlar xizmatlar sohasida ishlaydigan aksariyat kompaniyalarning saytlarida mavjud bo’ladi. Ulardagi ma’lumotlar safarga otlangan mijozlar uchun katta yordam beradi.

Umuman olganda, 2015-yil “Sarkor Solutions” tashkiloti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va hozirga qadar muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan www.railway.uz - “O’zbekiston temir yo’llari” AJ veb-sayti internet foydalanuvchilariga tashkilot, uning faoliyati haqida batafsil ma’lumot beradi. Saytning umumiy qiyofasi bezaklarga boy bo’lmagani, asosan, matnli va rasmi, chizmalı ma’lumotlar borligi zerikarlilik tuyuladi. Biroq sayt uchun tanlangan ranglar jiddiy va bu kompaniyaning jiddiy yirik davlat tashkiloti ekanini eslatib turadi. Saytdagi bo’limlar, ruknlar sonining ko’pligi sayt ijodkorlarining matnli axborot ustida yaxshi ishlashidan darak beradi. Biroq chet eldagi xuddi shunday saytlar bilan qiyoslansa, videolarning yo’qligi, animatsion tasvirlarning uchramasligi saytni zerikarli ko’rsatishini ham alohida qayd etib o’tish zarur.

II-BOB. “TEMIRYO’LCHI” GAZETASI HAMDA WWW.RAILWAY.UZ SAYTIDA SOHAGA OID ISLOHOTLARNI YORITISH MAHORATI

2.1. “Temiryo’lchi” gazetasida temir yo’l sohasi islohotlarini yoritish tajribasi: mavzular va janriy o’ziga xosliklar

«Temiryo’lchi» gazetasi o’z yo’nalish va maqsadiga ko’ra temir yo’l sohasidagi islohotlar jarayonida O’zbekiston uchun batamom yangilik hisoblangan temir yo’l tizimlari va transportini boshqarish, muayyan soha tuzilishini tubdan o’zgartirishga doir dolzarb masalalarni yoritishga mo’ljallangan.

«Temiryo’lchi» gazetasi zimmasida o’zbek jurnalistikasida ilgari yoritilmagan, ko’pchilik uchun notanish mavzuda faoliyat yuritish vazifasi turadi. «Temiryo’lchi» gazetasi O’zbekiston temir yo’l transporti xodimlarining nashri sifatida mustaqillikka erishilgan yildan to bugunga qadar tarmoq oldida turgan yirik o’zgarishlar bilan hamohang kelmoqda. «Sobiq Ittifoq parokandalikka yuz tutgan kundan boshlab sobiq O’rta Osiyo temir yo’li boshqarmasiga kiruvchi Tojikiston, Qirg’iziston respublikalari tashkil topishi bilan bu davlatlarning temir yo’llari tizimdan chiqib ketdi».¹

Mamlakatimiz miqyosida o’tkazilayotgan keng qamrovli islohotlarni qo’shib hisoblaganda gazeta jamoasi uchun zimmada qanchalik mas’uliyatli vazifalar turganini sezish qiyin emas.

Shu jihatdan olib qaraganda, «Temiryo’lchi» gazetasi ham zamonaviy jurnalistika va axborot tarqatish talablariga mos ravishda yo’l tutganini e’tirof etish mumkin.

«Temiryo’lchi» gazetasi hamda O’zbekiston temir yo’llari AJ veb-saytining 2015-2016 yillaridagi temir yo’l sohasidagi islohotlarni yoritish

¹ “Temiryo’lchi”. 2016. 18-aprel

tajribasini tahlil qilganda yuqorida sanalgan omillarni nazardan chetda qoldirmaslik kerak. «Perviye itogi» rukni ostida chop etilgan N.Shablonovanning «Buxariskiy regionalniy uzal» sarlavhali maqolasi¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Temiryo'l transporti boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish haqida»gi 2002 yil 5 noyabrdagi qarorining dastlabki samaralariga bag'ishlanadi.

Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli rejaning iqtisod bo'limi boshlig'i A.Platonova bilan muxbirning suhbatiga «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyasi tarkibida qayta tashkil etilgan uzeldagi xo'jalik yuritishning afzalliklari, buning natijasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar tahliliga e'tibor qaratiladi. Bu suhbatda 2015-yildagi ko'rsatkichlar bilan 2016-yildagi natijalar taqqoslangan. Bir-biridan ko'p turli yo'sindagi raqamlar keltirilgan. Biroq ularni o'qib jiddiy va mukammal tahlil hosil bo'lmaganini sezish qiyin emas.

«Poyet «Temiryo'lchi» na novostykh» sahifasida e'lon qilingan «Doroga idet k perevalu»² sarlavhali reportaj «Tashguzar-Boysun –Qumqo'rg'on» temir yo'li qurilishining borishiga bag'ishlangan bo'lib unda mazkur inshootning mamlakat xo'jaligidagi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, yangi yo'lning mintaqadagi foydali qazilmalarni o'zlashtirishdagi o'rnini, inshootning qurilish muddatlari va moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida so'z yuritiladi.

Muallif qurilishning borishini yoritish davomida, inshootda qo'llanilayotgan eng zamonaviy texnikalardan foydalanish, ish suratlarini jadallashtirish, uning foydalanishga topshirish muddatlari bilan gazetxonlarni xabardor qiladi. Temiryo'chi gazetasining 2017-yilgi 30-martdagi sonida berilgan yangiliklar rukni ostidagi «Yo'lovchilar uchun yana bir qulaylik» mavzusidagi maqolada mamlakatimizga «Afrosiyob»elektropoyezdining uchinchi harakat tarkibi olib kelinganligi munosabati bilan joriy yilning 10-apreldan boshlab, Toshkent-Samarqand-Toshkent yo'nalishida ham yuqori

¹ «Temir yo'lchi». 2016, 18-aprel

² «Temir yo'lchi». 2016, 18-sentabr, 14-son

tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdning muntazam qatnovi yo'lga qo'yilganligi ¹ ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek 2016-yil 14 aprel 15- sonida "Angren – Pop" liniyasi qurilishi haqida ham maqolalar berilgan

"Temiryo'lchi" gazetasining bu kabi yirik inshootlarning barpo etilishiga alohida urg'u berib qaraganini tushunish mumkin. Buning boisi mamlakatda faol davom ettirilayotgan islohotlarda ularning beqiyosligidir.

Gazeta "Imkoniyatlarni safarbar etib, mas'uliyat bilan ishlash – bosh maqsadimiz" maqolasida² tarmoq oldida turgan eng ustivor vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan kompaniya majlisida ko'rib chiqilgan tafsilotlar yoritilgan. 2016-yil temiryo'lchilar uchun katta mehnat va mas'uliyat talab etiladigan davr bo'ldi. Bu "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvining kengaytirilgan tartibdagi yig'ilishida yaqqol namoyon bo'ldi. Unda 2016-yilning birinchi choragida temiryo'lda faoliyat ko'rsata boshlagan mintaqaviy temiryo'l uzellari haqida mulohaza yuritiladi³

Gazeta yuqoridagi maqolada hukumat qabul qilgan qarorning mohiyatini tahlil qilarkan, uning samarasi qaysi jihatlarda ko'rinishlariga alohida urg'u beradi. Hujjatda ko'zda tutilgan vazifalar ichidagi ustivor yo'nalishlarni birma-bir sanab o'tadi.

"Temiryo'lchi" gazetasi yuqoridagi singari materiallarni chop etishda izchillikka erishganda yanada yaxshi bo'lar edi. Afsuski, bunday tahliliy, ommabop, har tomonlama asoslangan maqolalar gazeta sahifalarida kam uchraydi.

Gazetaning 2017-yil 2-fevral sonining bosh sahifasida "Sarhisob va rejalarga bag'ishlandi" mavzuida maqola berilgan. Unga ko'ra "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati va tarmoq kasaba uyushmasi Pespública Kengashi o'rtasida 2015-2017-yillar uchun tuzilgan tarmoq kelishuvi majburiyatlarining 2016-yil davomida bajarilishi hamda ushbu tarmoq

¹ "Temiryo'lchi" 2017. 30-mart, 13-son

² "Temiryo'lchi" 2003, 24-yanvar

³ «Temiryo'lchi» 2016 14-aprel, 15-son

kelishuviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati hamda O'zbekiston temir yo'lvchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika kengashi a'zolarining birgalikdagi kengaytirilgan yig'ilishi yoritilgan. Ushbu maqolada ham yetarlicha ma'lumot aniq ochib berilmagan. Faqatgina qog'ozdagi faktlar ko'rsatilgan. Kimga qanday yordam berilgani noma'lum bo'lib qolgan.¹

«Buyurtma muddatida bajariladi», «Ta'mirlovchilar faoliyatida yana bir bosqich»² sarlavhali maqolalarda kompaniyaning ikkita yirik teplovozlarni ta'mirlash hamda yo'lovchi vagonlarni ta'mirlash korxonalarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasidagi chora-tadbirlarga katta o'rin beriladi. Ushbu chiqishlarda ham mualliflar poyezdlar harakatini tashkil etishdagi yutuq va muammolarga to'xtaladi. Bu materiallarda mukammal tahlil, yangicha yondashuv, qiyosiy baho yetishmaydi. «O'ztemiryo'lkonteyner» OAJ; больше самостоятельности больше ответственности» deb nomlangan intervyuda³ muallif Galina Filipeko aksiyadorlik jamiyatining asosiy vazifalari hisoblangan konteynerda yuk tashishni amalga oshirishdan tortib yuklash-tushirish, transport bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, yuklash jarayoni texnologiyasida boshqaruvning avtomatlashgan tizimini joriy etish, transport ekspeditorlik xizmatini ko'rsatish, yuklarini deklaratsiyalashga e'tiborni qaratdi.

Intevyuda aksiyadorlik jamiyatining faoliyatidagi faqat ijobiy qirralar haqida fikr yuritiladi. Jamiyat oldida turgan muammolar, to'siqlar haqida deyarli birorta fikr mulohaza yo'q. Bu esa muallifning iqtisodiy mavzuni to'liq egallamaganligidan yoki suhbatdosh mualliflar xususida bahs yuritishga undolmaganidan dalolat beradi. «Hissadorlik jamiyatlariga vakillar tayinlanadi»⁴, «Связи с дорогой по прежнему крепкие»⁵ kabi boshqa materiallar haqida ham shunday xulosa qilish mumkin. Bu maqolada jiddiy

¹ Temiryo'lchi. 2017. 2- fevral, 5-son

² "Temiryo'lchi" 2016 1—mart, 2-son

³ Shu gazeta 2014. 14-fevral, 5-son

⁴ "Temiryo'lchi" 2013-23-may. 19-son

⁵ "Temiryo'lchi" 2013-23-avgust, 32-son

tahlilga boy mulohazalarni uchratish mumkin. «Samarqand fuqaro inshootlarni masofasi»¹. Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga besh yil to'lish munosabati bilan e'lon qilingan maqolada: aksiyadorlik jamiyatlarining kompaniya bilan hamkorlik munosabatlariga keng o'rin berildi.

Deyarli bankrot holatiga kelib qolgan korxonaning qisqa muddat ichida foyda ko'rib ishlaydigan jamiyatga aylanishda bozor mexanizmlarining ijobiy samarasi dalillar asosida ochib beriladi. Gazetxonlar uchun bunday korxonalar haqida qancha ko'p axborot borilsa, aksiyadorlar soni ham shu qadar ko'payishiga xizmat qilish mumkin.

Xullas, gazetadagi maqolalar asosan aniq faktlarga asoslanib yoziladi. Gazeta xodimlari ko'pincha shikoyat va arizalarni o'rganishadi. O'rganilgan materiallar asosida ta'sirchan maqolalar yuzaga keladi.

Pirovardida shuni alohida qayd etish joizki, "Temiryo'lchi" gazetasi va uni jurnalistlar jamoasi zimmasidagi kasb burchini oqlash bildirilgan ishonchini sidqidildan ado etish, yo'lidan bormoqdalar. Yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlarni yoritish borasida ko'rilayotgan choralar, mavzuga ijodiy yondoshish kabi jihatlar buning dalilidir. "Temiryo'lchi"ga qamrab olingan mavzular kengligi va rang-barangligi diqqatga sazovordir.

Gazeta materiallarining mavzu qamrovi ko'rinib turganidek, asosan, temir yo'l islohotlarini yoritishga bag'ishlangan. Biroq "Jamiyat" va "Madaniy-ma'rifiy sahifa" bo'limlarida madaniyat, ma'rifat, ta'lim, huquq, sportva boshqa sohalarga oid axborotlarning berilishini kuzatish mumkin.

Bu holat gazeta tahririyati xodimlarining o'z o'quvchilarining jamiyatning turli sohalaridagi so'nggi o'zgarishlardan ham voqif bo'lib borishlari uchun tinimsiz harakat qilishayotganini ko'rsatadi.

Jumladan, gazetaning 2016-yil 17-noyabr sonini varaqlaymiz. Uning 3-sahifasida Hulkar Hotamboyevaning "Kutubxona- ma'naviy boyliklarimiz

¹ "Temiryo'lchi" 2014-16-yanvar, 3-son

sarchashmasi” sarlavhali maqolasi berilgan. Unda kutubxona va kitoblarning insonlar hayotidagi o’rni haqida O’zbekiston temiryo’lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Markaziy kutubxonasida o’tgan seminar-trening misolida ochib berilgan.

Janrlar masalasiga kelsak, gazeta sahifaslarida axborot janrlaridan xabar, hisobot; tahliliy janrlardan maqola, korrespondensiya, badiiy-publitsistik janrlardan ocherklar ko’proq yoritilishi ko’rinadi.

2.2. www.railway.uz saytida temir yo’l islohotlarini yoritish mahorati va bunda internet jurnalistikaning imkoniyatlaridan foydalanish masalalari

Medianing mazkur turini ta’riflovchi atama borasida ko’plab turlicha fikrlar mavjudligini qayd etib o’tishimiz lozim. Rossiyalik nazariyotchilarning bir qismi tarmoq jurnalistikasi tushunchasini yoqlaydi. Inglizabon olimlar va amaliyotchilar esa on-line, yoki kiber-jurnalistika (on-line or cyber journalism) atamasini ma’qul ko’rishadi. Bizning mamlakatimizda esa tadqiqotchilar tomonidan ko’proq interaktiv yoki Internet-jurnalistika tushunchasi qo’llaniladi.

Demak, on-line, yoki Internet-jurnalistika – Internet tarmog’idagi elektron nashrlardir. Ular bosma nashrlarning elektron nusxasi, sof Internet-nashrlar yoki o’zining bosma ko’rinishiga ham ega bo’lgan Internet-nashrlardir.

On-line jurnalistikani unda nafaqat professional jurnalistlar, balki virtual muloqotga ehtiyoj sezadigan barcha kishilarning faol ishtirok etishi mumkinligi ajratib turadi.

Bundan ko’rinadiki, medianing bu turida interaktiv jurnalistika yaqqolroq namoyon bo’lar ekan. Internetning ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatidagi o’ziga xosligini belgilovchi bir qator belgilar mavjud.

Jumladan:

- globallik;

- markazlashtirilmaganlik;
- ommaboplik;
- foydalanuvchi tomonidan nazorat qilinishi.

Bu ro'yxat to'la bo'lishi uchun tezkorlik va tejamkorlik kabi sifatlarni ham qo'shib qo'yish kerak. Yuqoridagilarning barchasi Internetdan foydalanuvchilar soni ortib borayotganini belgilovchi omillar hisoblanadi.

O'znetning media sektorida ikki toifadagi nashrlarni kuzatish mumkin. Birinchisi – o'zlarining elektron namunalari bilan butunjahon o'rgimchak to'riga kirib borgan an'anaviy OAVlarning evolyutsiyasi natijasida yuzaga kelgan. Boshqasi – asl tarmoqli bo'lib, avval boshdan veb-texnologiyalar bazasida yuzaga keldi va ayni paytda ham Internet makonida faoliyatini davom ettirmoqda.

Birinchi toifani shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1) An'anaviy OAVlarning ekvivalent nusxalari yoki «klonlar»i. Odatda «klon» quyidagicha yaratiladi: gazetaning kundalik nusxasi olinib, veb-saytga joylashtiriladi. Bu o'rinda mazkur Internet-nashrning na maqsadga muvofiqligi, na iqtisodiy tomonlari, na auditoriyasi e'tiborga olinmaydi. O'zbekistondagi aksariyat gazeta va jurnallar allaqachon o'zlarining tarmoqdagi nusxalariga ega. Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi shu maqsadlar uchun maxsus grantlar ajratgan edi. Jamg'armaning www.mmf.uz saytidan yaratilgan saytlarning Internet-manzillarini topish mumkin. Yaqindan tanishib chiqilganda O'zbekistondagi aksariyat gazeta va jurnallarning tarmoqdagi nusxalari uchun bir xildagi kamchiliklar xos ekanligini ko'rish mumkin. Odatda Internet-nusxalar faqatgina nashrning bosma nusxasi chop etilgandan keyingina yangilanadi yoki butunlay o'z holiga tashlab qo'yilgan. Xatto, bosh sahifasidan yarim yil oldingi yangiliklar hali ham joy olib turgan Internet nashrlarni ko'rish mumkin. Ba'zan esa saytning bosh sahifasida ko'plab ruknlar («Iqtisodiyot», «Siyosat», «Ta'lim» va boshqalar) mavjud bo'lsa-da, amalda ularning bir-

ikkitasidagina maqolalarni uchratish mumkin, xolos. «Klon»larning yana bir muammosi materiallarning Internet auditoriyaga moslashtirilmasdan joylashtirilishidadir. Agar gazeta yoki jurnalda keng ma'noli sarlavha va ruknlar odatiy hol hisoblansa, Internet-saytda ular aniq bo'lishi talab etiladi. Bitta sahifada katta matnning berilishi ham uni o'qishni qiyinlashtiradi. «Pravda Vostoka» gazetasining veb-sayti - www.pv.uz da mana shunday holatni kuzatish mumkin. Unda maqolalar xatboshilarga ajratilmasdan, mayda harflarda joylashtiriladi. Birorta ham materialga suratlar ilova qilinmaydi. Faqat kamdan kam nashrlargina tarmoqning interaktiv imkoniyatlaridan samarali foydalanishmoqda: maqolalarda linklar, RSS-jo'natish imkoniyati mavjud bo'ladi, forumda maqolalarni tahlil va muhokama qilish mumkin. Buning boisi shuki, O'zbekiston OAVlari hali o'zlarining Internetdagi ishtiroklarining butun ahamiyati va zaruratini, o'zlari uchun sayt nega kerakligini to'la anglab etishganicha yo'q. Amalda Internet-nusxani yaratish kasbiy yondoshuvni va ma'lum sarf-xarajatlarni talab qiladi. Aslida tahririyatda veb-saytni ishlatish, yangilab borish va unda joylashtirish uchun materiallar tayyorlash bilan shug'ullanadigan maxsus bo'lim faoliyat olib borishi kerak. InfoCOM.UZ jurnali tahririyatida ish mana shu tartibda tashkil qilingan. Nashrning Internet-nusxasini mustaqil, mahorat bilan yaratilgan va faoliyat olib borayotgan veb-loyiha sifatida baholash mumkin. Agar jurnalning o'zi oyda bir marta nashr etilgani bois materiallarni o'quvchilarga etkazishda tezkorlik bir qadar cheklangan bo'lsa, Internet-nusxa ana shu bo'shliqni to'ldiradi. Jurnal tahrir hay'ati raisi A. Suchkovning ta'kidlashicha¹, InfoCOM.UZ jurnalining elektron-nusxasi iqtisodiy jihatdan zarar keltirar ekan. Ammo tahririyatda uning yordamida kundalik yangiliklarni tezkor e'lon qilib borish va shu orqali o'quvchilar auditoriyasini ko'paytirish mumkin, deb hisoblashadi. Uzbekistan Today (www.ut.uz) gazetasining Internet-nusxasini yaxshi misol tariqasida

¹ Медиафорум. Роль современных информационно-коммуникационных технологий в деятельности печатных СМИ и перспективы развития интернет-ресурсов страны. Т., 2007

keltirib o'tishimiz mumkin. Sayt yoqimli oq-moviy rangda bezatilgan, yangiliklar tasmasi muntazam yangilab boriladi, yangiliklarni RSS-jo'natish imkoniyati, arxiv mavjudlishi, qulay navigatsiya – Internet-auditoriya o'rtasida muvaffaqiyat qozonish garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

«Ekonomicheskoe obozrenie» (www.review.uz) jurnali, «Novosti Uzbekistana» (novostiuzbekistana.st.uz), «Zerkalo XXI veka» (zerkalo21.uz) gazetalarning Internet-nusxalari ham yomon emas.

Yaqinda «Fan va turmush» ilmiy-ommabop jurnalining sayti - www.fvat.uz ish boshladi. Uni to'la ma'noda «gibrid»(duragay) saytlar sirasiga kiritish mumkin. Bir qarashdayoq sayt o'zining chiroyli va noana'anaviy dizayni, flesh-animatsiyasi, qiziqarli ilmiy ma'lumotlarning ko'pligi bilan diqqatni tortadi. Foydalanuvchilarda maqolalarni muhokama qilish imkoniyati mavjud. Saytda ikkita mualliflik blogi bor: birinchisi bosh muharrir Shuhrat Egamberdievniki, ikkinchisi - «Zanimatelno o nauke» («Fan haqida qiziqarli tarzda») deb nomlanadi. Saytning yana bir o'ziga xosligi unda jurnalning yangi sonining kichraytirilgan nusxasini varaqlab ko'rish imkoniyati bor. Umuman, sayt bimalol ilmiy Internet-nashr nomiga da'vogarlik qila oladi.

Tarmoqdagi nashrlarning ikkinchi kategoriyasini Internetda paydo bo'lgan va offlayn nusxalarga ega bo'lmagan medialoyihalar tashkil qiladi. Ushbu kategoriyada ikkita alohida guruhni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) Axborot portallari–ko'p tarmoqli Internet-xizmatlar bo'lib, ular axborotning uzluksiz oqimi bilan bir vaqtda mavzular, janrlar va servislarning turli tuman bo'lishini nazarda tutadi. Gov.uz, ya'ni O'zbekiston Respublikasining xukumat portali bo'lib, Internetning global kompyuter tarmog'idagi asosiy va rasmiy davlat axborot resursini ana shu toifaga kiritish mumkin. Portal davlat xokimiyati organlari faoliyatining funktsional jarayon va tartibini qo'llab-quvvatlovchi, davlat xokimiyati va boshqaruvi organining elektron hamjihatlik infratuzilmasining tizimini tashkil etuvchi qism

hisoblanadi. Gov.uz portalida xabarlar uch tilda: o'zbekcha, ruscha, inglizchada joylashtiriladi.

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishiga bag'ishlangan bir.uz portal ham mana shu kategoriyaga taalluqli deyish mumkin. Internet-resurs O'zbekiston biznes-inkubatorlari Assotsiatsiyasi tomonidan yaratilgan. Resurs kichik va xususiy biznes sub'ektlariga mo'ljallangan to'liq va dolzarb ma'lumot va axborotlarni e'lon qilishga xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda portal keng auditoriya (talabalar, iqtisodchilar) uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Materiallar «Moliyalashtirish», «Uskunalar», «Innovatsiyalar», «Stipendiya va grantlar» kabi tematik bloklarga ajratilgan.

O'zA Milliy axborot agentligining sayti www.uza.uz ni ham axborot portal deyish mumkin. 2007 yilda saytning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi yangilangan nusxasi ishga tushirildi. Birinchi marta portaldagi o'zbekcha, ruscha va inglizcha sahifalarda ruknlar bir xil ko'rinishga keltirildi. Sahifalarda suratlar soni ko'paydi.

2) Elektron gazeta va jurnallar. Ular offlayn-nashrlarga taqlidan ma'lum grafik asosida yangilab turiladi, yangilik xarakteridagi materiallarga nisbatan tahliliy materiallar ko'proq joylashtiriladi. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy hayotiga bag'ishlangan Gazete.Uz (www.gzt.uz) tarmoq gazetasi bunga yorqin misol bo'la oladi.

So'nggi yillarda an'anaviy bosma nashrlar qatori elektron nashrlar ham jurnalistikamizda o'z o'rnini yanada mustahkamlab, rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda bosma OAVning ham, elektron OAVning ham o'ziga xos tili va uslubi mavjud. Bunday o'ziga xosliklar auditoriya va ularning mavjud muhiti talablari asosida shakllanadi.

Avvalo, elektron OAVdagi xabarlarda "qisqalik va lo'ndalik" tamoyiliga amal qilinadi. Chunki tezkor internet hududidagi tijoriy reklama xabarlarining "hujumi" elektron OAVga tashrif buyurayotgan auditoriyani tortib olish ehtimoli juda yuqori. An'anaviy bosma nashrlar esa bunday onlayn hujumlardan

holi ekanligi sabab, xabarlarni imkon qadar batafsil bayon etishi mumkin. Xarid qilingan gazeta-jurnallar ularni sotib olgan auditoriyaning mulki hisoblanib, uni xohlagan payt o'qish mumkin.

Ikkinchidan, elektron OAVda berib borilayotgan xabarlar asosan chet el saytlaridagi materiallarning tarjimasi hisoblanadi. Ularda faoliyat yuritayotgan xodimlar kuniga o'rtacha hisobda aytaylik o'nta material tarjima qilsa, tahririni ham asosan o'zi qiladi. Bosma nashrlarda esa tahrir bilan shug'ullanadigan maxsus xodim bo'ladi va barcha to'plangan materiallar uning qo'lidan o'tadi. Shu jihatdan olib qaraganda, elektron OAV saytlarida bosma nashrlardagiga nisbatan ko'proq tahrirtalablikni kuzatish mumkin.

Elektron nashr materiallari sarlavhalarida ko'chirma gaplarning, qo'shtirnoqqa olinmasligini ko'plab kuzatish mumkin. Yoki xabarlarda qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigini ishlatish hollari ham uchraydi.

“Xabarni yozilishiga ko'ra bir marta o'qiganda tushunmasak va uni qayta o'qishga to'g'ri kelsa, demak u muvafaqiyatsiz chiqqan”¹. OAV saytlaridagi tarjima materiallarda grammatik xatoliklar bilan birga mantiqiy xatoliklar, so'z qo'llash bilan bog'liq xatoliklarni ham uchratish mumkin.

Misol uchun, www.railway.uz nashrida 2016-yil 9-may kuni chop etilgan “Xitoy rahbari Shimoliy Koreya rahbarini qutladi” xabarining sarlavhasi juda jo'n bo'lib, fikrda etishmovchilik borligi bir o'qishda seziladi:

Uchinchidan, sarlavha uslubiyati jihatidan olib qarasak, bosma nashrlarda so'z sarlavhalarni, so'z birikmali sarlavhalarni va gap sarlavhalarni – umuman sarlavhaning barcha turlarini uchratish mumkin. Biroq elektron nashrlardagi materiallar sarlavhalari deyarli gap sarlavhalardan iborat. Bu, albatta, internet talablaridan ham kelib chiqadi, ya'ni butun bir matn mazmunini so'z sarlavhalar va so'z birikmali sarlavhalarda jo etish muallifdan katta mahorat talab etadi va bu biroz mashaqqatli: fikrlashga vaqt kerak. Haftada bir marta chiqadigan nashrlar uchun vaqt etarli, biroq har kuni har soatda material chop etadigan

¹ Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. – T.: Universitet, 2008, 117-bet.

saytlar uchun, birinchi navbatda, sifatdan ham ko'ra yangilikni vaqtida auditoriyaga ulashish turadi. Qolaversa, gap sarlavhalar asosan yangilik siyohidagi nashrlarga xos.

To'rtinchidan, internet maydonidagi auditoriyani tutqich bermas simobga o'xshatish mumkin: bir paytning o'zida o'nlab saytlar oynasini ochib foydalanish, xabarlar ichidagi linklar tezkorlik bilan saytdan saytga o'tish imkonini yaratadi. Shu sababli, onlayn nashrlarning bosh tamoyili "Kamroq so'zdan foydalanib, ko'proq ma'lumot etkazish" hisroblanadi. Bunda esa har bir jumlagi mustaqil xabar etkazuvchi sifatida qarash mumkin. Jumlagi bog'liqlik esa joylashish tartibiga ko'ra, mantiqiy ketma-ketlik asosida yuzaga chiqadi. www.railway.uz xabarlariga asosan 3-4 qisqa abzatsdan oshmaydi.



Beshinchidan, bugungi kun onlayn nashrlari uslubida ikki til yoki ikki xil alifboga xos so'zlarni apostrof (') bilan ajratish keng qo'llanilmoqda.

Bosma nashrlarda esa bu vazifani faqatgina qo'shtirnoq (") bajaradi.

Nashrlar tili va uslubi ularning asosiy xususiyatlari, maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chambarchas bog'liq. Bugunga kelib axborot globallashtirish, jadallik sharoitida, davr taqozosiga ko'ra, matbuotda ixtisoslashuv yuz bermoqda. Endilikda ixtisoslashuv nashrlar tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Nashrlar qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, shu sohaga mansub terminlar, birikmalar, konstruktsiyalar sezilarli darajada uchraydi.

Gazeta nutqining o'ziga xos jihatlaridan biri uning andozaviyligidir. Gazeta nutqining bu xususiyati u paydo bo'lgandan boshlab to shu kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunga sabab til, grammatika vositalarini tanlash qat'iy belgilanganligi, ya'ni grammatik tuzilish bunda mutlaqo qat'iy va bajarilishi shart qilib qo'yilgan. Gazetalarda axborot materiallarining odatiy va asosiy turi, masalan, xabar, intervyu, xronika, sezilarli darajada bosh maqola – barchasi tayyor qoliplar, shablonlar asosida yoziladi. Bular oldindan moslangan tayyor quyma so'z janrlar, til iborat nutqiy qoliplar bo'lib, gazeta ishlab chiqarish jarayonida muayyan maromga keltirilgan bo'ladi.

Ammo andozaviylik istisno tarzida qotib qolgan gazeta tilining o'ziga xos jihati, deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi. Aslida, nutqiy faoliyatining barcha sohasi andozalangan, deyishimiz mumkin. Lekin, shu bilan birga, nutqning andozaviyligi tabiiy mavjud va takomillashuvchi jarayon. Bundan maqsad lo'nda tayyor nutq formulasini aloqaning turli sohalari uchun tayyorlashdan iboratdir.

Oltinchidan, onlayn nashrlarning aksariyati auditoriya qatlamlarini, xilma xilligini inobatga olgan holda xabarlarni ikki alifboda – ham lotin, ham kirillda berib bormoqda. Lotin yozuviga o'tganimizga 20 yildan oshganiga qaramasdan bosma nashrlarimizning aksariyati kirill alifbosida chop etiladi.

Qolaversa, onlayn nashrlar Daryo.uz va Kun.uz qo'l telefonlar uchun maxsus app (predlojenie) larga ega bo'lib, hatto internet bo'lmagan vaziyatlarda ham ilgani yuklangan xabarlarni bema'lol offline tarzda o'qishimiz mumkin.

Onlayn nashrlarning tas-x tizimiga o'tayotganligi ham quvonarli hol. Masalan, Daryo.uz nashri tas-x tizimida ishlashi sababli saytga kirganda megabayt ketmaydi. Ular endilikda hatto telegramda o'z kanallariga ega. Onlayn nashrlar rivoji foydalanuvchilarga yildan yilga ko'plab qulayliklarni yaratmoqda.

Mustaqillik yillarida yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya qurilishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida temir yo‘llar iqtisodiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, mamlakatimiz salohiyatini yuksaltirish va xalq farovonligini ta‘minlashda muhim strategik tarmoqqa aylandi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirishga yo‘naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirish hamda tarmoqda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan sa‘y-harakatlar o‘zining yuksak samaralarini bermoqda. Xususan, joriy yilning o‘tgan davrida po‘lat izlar orqali tashilgan yuk hajmi yanada ko‘payib, 33,3 million tonnani tashkil etdi.

Yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlarning ishonchli va xavfsiz qatnovini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilayotgani natijasida temir yo‘l xizmatidan foydalangan yo‘lovchilar qariyb 11 millionga yetdi.

Sanoat korxonalarida 204,4 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, yaratilgan yangi ish o‘rinlari 200 dan oshdi.

Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasi qurilishi, Maroqand-Qarshi, Qarshi-Termiz, Samarqand-Buxoro temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirish, yuk va yo‘lovchi vagonlari parkini yangilash, lokomotivlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyihalari uchun 344,7 million dollar mablag‘ o‘zlashtirildi¹.

– Dengiz sathidan 2 ming 200 metr balandlikda joylashgan Qamchiq dovoni bo‘ylab qurilayotgan Angren-Pop yangi elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasidagi bunyodkorlik ishlari jadal davom ettirilmoqda, – deydi Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li qurilishi loyiha rahbari Navro‘z Erkinov. – Loyihaga ko‘ra, ushbu ulkan qurilish obyektida jami 43 million kub metr

¹ Po‘lat izlar – muhim strategik tarmoq. www.railway.uz. 2015-07-27.

tuproq, 16,3 million kub metr burg‘ulash ishlari bajarilishi, 19,1 kilometrlik tunnel, 285 cuv va 6 yo‘l o‘tkazgich, 13 temir yo‘l ko‘prigi, 6 stansiya va 2 vokzal bunyod etilishi ko‘zda tutilgan. Bugungi kungacha tuproq va burg‘ulash ishlari bajarilib, suv va yo‘l o‘tkazish inshootlari, ko‘priklar qurilishi tugallandi, “Orzu” vokzali, “Ko‘l”, “Temiryo‘lobod”, “Qo‘shminor” stansiyalari qurib bitkazildi.

Maroqand-Qarshi temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish loyihasiga malakali ishchilar va zamonaviy texnika vositalari jalb qilinib, qurilayotgan obyektlarda avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi va elektr energiya sarfini hisoblash tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

Ikki yuz to‘qson bir kilometrlik Samarqand-Buxoro temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish ishlari ham boshlab yuborilgan bo‘lib, 4 navbatchilik punkti va uch kichik elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan¹.

Mahalliyashtirish dasturi asosida aloqa tarmoqlarini qurish uchun zarur butlovchi qismlarning asosiy qismi yurtimizda ishlab chiqarilmoqda. Bu qurilish xarajatlarini kamaytirib, ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilishiga imkon yaratmoqda.

Umuman olganda, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati faoliyati www.railway.uz saytida to‘laqonli yoritib kelinmoqda. Biroq bu borada sayt ijodkorlari internet jurnalistikasining so‘nggi yutuqlaridan ham foydalanishni yoddan chiqarmasliklari kerak. Saytda asosan ijobiy ruhdagi materiallar yoritilgan. Ayrim o‘rinlarda tanqidiy ma’lumotlarning ham berib borilishi sayt ommabopligini yanada oshirishi shubhasiz.

¹ Po‘lat izlar – muhim strategik tarmoq. www.railway.uz. 2015-07-27.

2.3. Temir yo'l sohasiga oid yangilanishlarni yoritishda mavzu va muammo ko'tarish mas'uliyati

Jurnalistika sohasi universal xarakterga ega bo'lish bilan birga jamiyatdagi barcha sohalarni bog'lovchi ko'prik ham sanaladi. Ya'ni barcha sohalar va ularning mutaxassislari aynan jurnalistika orqali o'zaro muloqot qiladilar. Sohadagi eng so'nggi yangilik va ilmiy kashfiyotlarni ixtisoslashgan va tarmoq OAVdan o'rganadilar. Shu bilan bir qatorda tarmoq OAV mamlakatning barcha aholisi uchun ham axborot olish vositasi bo'la oladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ixtisoslashgan OAV faoliyatida axborot tarqatishning bir qator mas'uliyatli jihatlari bor. Jumladan:

- sof ilmiy uslubdan qochish va ilmiy ommabop uslubda yozishga harakat qilish;

- sohaga oid mavzu va muammoni tushunish va mutaxassislar bilan mavzu doirasida atroflicha suhbat olib bora olish bilim va ko'nikmasiga ega bo'lish;

- sohaga oid muammolarni kerak bo'lsa, mutaxassislardan oldinroq payqash va yechimlarni taklif eta olish yo'llarini izlash kabilar.

1990-yilda O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'zbek modelini tanlaganda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov bosh islohotchi davlat ekanligini e'lon qilgan edi. Mahalliy xususiyatlarni hisobga olib o'tkazilayotgan ijtimoiy-temir yo'l sohasidagi islohotlarning bu tamoyili ishonchli mo'ljal bo'lib chiqqanligini, eng yirik xorijiy siyosatdonlar, moliyachilar, iqtisodchi va jurnalistlar alohida ta'kidlaydi: «Mamlakatda iqtisodiyotni bosqichma-bosqich amalga oshirilishini huquqiy jihatdan ta'minlaydigan muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu O'zbekistondagi yirik sarmoyadorlarning dadil kirib kelishiga va mamlakat ichki va tashqi bozorida faol va dadil harakat qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. Keyingi o'n yil ichida O'zbekistondagi kiritilgan xorij sarmoyalarining umumiy hajmi o'n milliard dollordan oshib ketgani bu fikrning tasdig'idir. O'zbekistonda bugunga

kelib xorij sarmoyasi ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni uch mingtadan oshdi.

Mustaqillik yillarida tashqi savdo aylanmasi 1/3 baravardan ziyodroqqa ko'paydi va qariyb o'n milliard dollorga oshdi»¹. Hamma vaqt va hamma joyda moddiy boylik yaratuvchi mehnatkash xalq hayotini yaxshilash shiorini hech kim hech qachon oshkora rad etolmagan. «Sobiq sho'rolar ittifoqida «rivojlangan sotsializm» bosqichi boshlanganligining e'lon qilinishi bilan mehnatkash xalq hayotining yuksalishini mubolag'ali tarzda bo'rttirish, baland pardalarda maqtanchoqlik qilish bosqichi ham boshlangan edi. Matbuotda dalada mehnat simfoniyasidan yayrab, javlon urayotgan «fidoyi» qahramonlar va ularning farovon hayoti hususida gapirishdan charchamasdi. Xaqiqiy ahvol esa o'zgacha edi»².

Bozor iqtisodiyoti davrining ham o'zida hos muammolari bor, uni yoritish o'ta ma'sulyatni, diqqat e'tiborni talab qiladi. Bunda axborot uzatishning zamonaviy usullaridan eng rivojlangan vositalardan, janrlardan foydalanish taqozo etiladi.

«Ommaviy axborot vositalari orasida gazetalar erkin fikr almashish jarayonida muhim ro'l o'ynashi lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tish o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra yangilik bo'lgani uchun ham bu mavzuda bahsga sabab bo'luvchi fikrlar ko'p bo'lishi tabiiy. Shu boisdan, gazetalar ham o'z xodimlariga ham, chet mualliflari o'z g'oyalarini aytishlari uchun o'rin berishi lozim.

Hozirgi dunyoning eng e'tiborga sazovor kontseptsiyalari gazeta sahifalarida tug'ilganini ham eslatib o'tish joiz. Axir yangi g'oyalarni rivojlantirish uchun gazeta o'rin bermasa, boshqa kim ham berardi».³

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T.: 1995, 46-bet

² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T.: 1995. 187-bet

³ I. A. Karimov OAV haqida (maxsus risola). T.: 1997, 13- bet.

«Demokratik an'analari uzoq yillarga borib taqaladigan davlatlarda, tahliliy jurnalistika» yoki «matbuot fikrlari» iboralari keng tarqalganini kuzatish mumkin».

Bugun O'zbekiston jurnalistikasi deyarli barcha yo'nalishlarda katta o'zgarishlarini boshdan kechirmoqda. Bu ommaviy axborot vositalarida bozor iqtisodiyotiga o'tish nasalalari muammolariga bog'liq tahliliy darajaga bir qadar kamroq tegishlidir. Umuman, bu masalalarda muammo yo'qdek tuyuladi. Faqat mavzu bor, uning mazmuni faqat bozor munosabatlariga o'tishning zarurligi haqidagi qaroriga borib taqaladi. Bu yo'nalishdagi materiallar bilan tanisharkan, o'quvchi shunday xulosaga keladi; bozor bu farovonlik va biz unga to'liq o'tganimizda turmushimiz boshdan oyoq bayramga aylanadi. Gazetxon moddiy farovonlikda, jannatiy hayot kechirganmiz degan o'yga boradi. Bu shundan dalolat beradiki, jurnalistlar jamoatchilikni o'ylantiradigan masala va muammolarga ahamiyat bermay qo'yishgandek. Tahliliy materiallar yaratishda gazetalarda mavzu va muammo ko'tarish ma'suliyatiga qay yo'sinda yondashilmoqda.

Jurnalistlarning oldiga qo'yilgan talablar juda katta:

a) omma e'tiboriga havola etiladigan faktni chuqur tahlil qilish:

b) uning ilmiyligini qonuniy nuqtai nazardan ko'rib chiqish:

v) axborotning ko'pchilik tomonidan baholanishini oldindan ko'ra olish:

g) jurnalist o'zi guvohi bo'lgan voqea-hodisa, axborotni ommaga yetkazib bera olish:1.

Jurnalistning bilim darajasi har tomonlama chuqur bo'lishi kerak. U huquq, iqtisod, falsafa, sotsiologiyadan, hullas, barcha fanlardan xabardor bo'lishi darkor. Kerak bo'lsa, jurnalist shifokor bo'lishi zarur. U aytgan har bir so'z xalq dardiga da'vo bo'lishi lozim. Har bir journalist o'tkazayotgan tekshiruv ko'plab axborot man'bai: ma'lumotlar, hujjatlarga, shahsiy kuzatuvlarga tayanadi. Faktlar yig'ishda ehtiyotkorlik, aniqlik asosiy shart hisoblanadi, chunki har bir ma'lumotni berishda uning oqibatini qanday bo'lishi ehtimliga tayyor

tura olish lozim. Ignadek xatodan ayb izlab, qilgan kuzatuvingizni yo'qqa chiqarishlari mumkin. Buning uchun esa jurnalistdan o'z ishining ustaligi talab qilinadi.

Jurnalistdan hayotiy masalalarini yahshi idrok etish, odamlarni va hodisalarni mohiyatan tez anglash shart. Ayni paytda, u muomalali, kuzatuvchan, odamlar bilan munosabatga kirishuvchan va doimiy ravishda o'z ustida ishlovchi, izlanuvchi ijodkordir. Bu siz u har kuni odamlar oldiga kelishi va ularning ochiq chehralarini ko'rishga muyassar bo'lishi qiyin, chunki odamlar o'zlarining nima haqda fikr yuritayotganini angelaydigan, his qiladigan shaxsga ishonch bildiradilar»¹.

Jurnalistlarning ayrim kuzatuvchilari hujjatlardan boshlanib, aholidan so'rov o'tkazish bilan tugaydi, boshqalari aksincha, so'rovdan boshlanib hujjatlar bilan tugaydi. Lekin har qanday sharoitda ham, ommaviy axborot vositalari xodimlarining kuzatuvchilari aynan konfliktning ishtirokchisi yoki rahbar bilan uchrashuvsiz o'tmaydi. Suhbatdan avval jurnalist faqat bo'lib o'tgan voqeadan emas, balki uning yechimlaridan ham, o'z bo'lsada, xabardor bo'lishi kerak. Suhbat jurnalistning uy-fikrlarini jamlab olishga, boshlanayotgan ishni aniq faktlar bilan to'ldirilishgagina emas gazetxonni jonli suhbatdan bahramand etishga yordam beradi. Maqolaning hech qanday mulohazasiz, bahssiz, faqat jurnalist fikri bilan to'la bo'lishi gazetxonda ishonchsizlik, shubha uyg'otishi aniq»¹.

Demak, aniq faktlarga tayanib ish tutish jurnalistning birinchi galdagi vazifasidir. Iqtisodchi jurnalistlar uchun bu eng asosiy shior bo'lmog'i lozim, chunki ularning bildirgan har bir fikri aniq, lo'nda bo'lishi zarur.

«Temiryo'lchi» gazetasining har bir viloyatda o'z muxbiri bor, ular doimiy ravishda tahririyatga joylarda amalda oshirilayotgan ishlar haqida yozib turishadi.

¹ "Trud jurnalista: professionalizm , tvorchestvo, masteristvo" T.: "O'zMU" 2002, 136-bet

Bu borada jurnalist juda ko'p axborotlarni aniq faktlar bilan boyitgan. Vakolatli idoralar mutasaddilarining ma'lumotlariga murojaat qilgan. Izlanish samarasi o'laroq, muayyan muammo yuzasidan aniq manzara hosil qilingan.

Jurnalist maqolani chuqur tahlil asosida yozgan. Maqolaning sarlavhasi bir qarashdayoq o'quvchini o'ziga jalb qila oladi. Bu kabi keskin tanqidlar muammolarning tezroq hal etishga muhim turtki bo'ladi. Chunki tanqid yechimning eshigidir.

«Jurnalist-o'z mashg'ulot doirasiga ko'ra, keng bilim doirasiga ega, aql-zakovatli, har tomonlama komil inson. Bu unga hayotni butun rang-barangligi va tafsilotlari bilan ko'rsatib berish imkonini beradi.

Jamiyatda jurnalist hamma sohadan bir chimdimdan xabardor bo'lgan holda aynan bir sohani mukammal bilishi kerak. Eng iste'dodli jurnalist ham, Козьма Прутков ta'biri bilan aytganda, hamma narsani qamrab ola bilmaydi»¹.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodchi soha mutaxassislari bilan aloqador jurnalist bilimidagi yetishmovchiliklarini to'ldirishga yordam beradi. Buning uchun jurnalist qayerda ishlamasin, aynan o'zi faoliyat ko'rsatayotgan sohada o'quvchilarni qiziqtirgan mavzularga jalb etishni o'rganib olishi zarur. «Temiryo'lchi» jurnalistlari «Temiryo'lchi»ga nisbatan buning uddasidan chiqyapti deb aytish mumkin.

Bugungi kunda “Temiryo'lchi” gazetasi hamda www.railway.uz sayti garchi bosma va onlayn nashrlar o'ziga xos tili va uslubiga ega bo'lishiga qaramay, ular o'zaro hamkorlikda rivojlanadi. “Temiryo'lchi” gazetasi gazetasining deyarli har bir sonida www.railway.uz saytidan olingan axborot materiallaridan ham foydalaniladi va bu ruknda “www.railway.uz saytidan” deb ko'rsatiladi.

www.railway.uz sayti o'z materiallarini internet talablariga mos tarzda – tili va uslubi jihatidan bosma variantidan farqli ravishda bermoqdalar.

¹ 'Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti' T.: 2002-yil. 162-bet

Xulosa

Mustaqillik yillarida yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya qurilishida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida temir yo‘llar iqtisodiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, mamlakatimiz salohiyatini yuksaltirish va xalq farovonligini ta‘minlashda muhim strategik tarmoqqa aylandi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirishga yo‘naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirish hamda tarmoqda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan sa‘y-harakatlar o‘zining yuksak samaralarini bermoqda.

Bunday ulkan va misli ko‘rilmagan choralarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, chunonchi, «Temiryo‘lchi» gazetasi va www.railway.uz sayti tomoshabin bo‘lib turgani yo‘q. Aksincha, barcha ommaviy axborot vositalari singari o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra baholi qudrat bu masalalari yoritishga harakat qilgan. Har ikkala nashrda ham, umuman olganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan temir yo‘l sohasidagi islohotlarning mohiyatini ochib berish, ulardan keng o‘quvchilar ommasini xabardor qilish dolzarblikni, fikrlar xilma-xilligini ta‘minlash, erkin so‘z aytish kabilarga erishilgan.

Yuqoridagi nashrlarni alohida-alohida tahlil qilinganidan shuni kuzatish mumkinki, «Temiryo‘lchi» tarmoq nashrida ko‘plab soha olimlari, mutaxassislar, hattoki talabalarining o‘zlari ham doimiy ravishda bu borada qilinayotgan ishlar haqida yozib turadilar.

Yurtimizda yuz berayotgan temir yo‘l sohasidagi islohotlarning borishiga doir o‘zlarining fikr va munosabatlarini o‘z chiqishlarida imkon qadar bildirishga harakat qilganlar. Bundan farqli o‘laroq «Temiryo‘lchi» gazetasida temiryo‘l transportida yuz berayotgan o‘zgarishlarni keng o‘quvchilar ommasiga yetkazishda mualliflar doirasi faqat gazeta muxbirlarining chiqishlariga yoritilishi bilan kifoyalanib qolgan. Mutaxassis mualliflar, olimlar,

iqtisodchilar chiqishlariga deyarli o'rin berilmagan desa ham bo'ladi. Bunday to'laqonli faoliyatining amalga oshirilishini yo'llaridan biri bo'lgan mualliflar, o'quvchilar xatlari bilan ishlash katta samara berishi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, «Temiryo'lchi» tahririyatda bu yo'nalishda yaxshigina tajriba to'plaganini kuzatish mumkin. Gazetada chop etilgan aksari maqolalar o'quvchilarning xatlari asosida tayyorlanganligi ko'zga tashlanadi. Jurnalist tekshiruv mutaxassis maslahati, sud jarayonlarida qatnashish kabi tahliliy maqolalarga keng e'tibor berilganini bitiruv ishim jarayonida kuzatdim. «Temiryo'lchi» gazetasida ham bu kabi usullar qo'llanilganda yaxshigina ijobiy samara olish mumkin. Zotan, keyingi yillarda temiryo'l transportida misli ko'rilmagan iqtisodiy o'zgarishlar islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston iqtisodiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shiladigan Amudaryo uzra qo'shma ko'priklarni bunyod etildi. Yangi yo'lovchi poyezdlarni O'zbekistonda tayyorlash yo'lga qo'yildi. Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temiryo'l qurilishi jadallik bilan davom ettirilmoqda. Bu o'zgarishlarining pirovard maqsadi mamlakatda yagona transport tizimini yaratish, yerosti boyliklarini o'zlashtirish, xalqimiz turmush farovonligini yaxshilashga qaratilganini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Temir yo'l sohasiga oid qabul qilingan qaror va qonunlar gazeta sahifalarida yoritilarkan, tahririyat xodimlari ushbu farmoyishlarini xalqning oddiy qatlamiga tushintirishlari, uning foydali tomonlarini yetkazib berishlari aynan muvaffaq bo'ladi.

«Temiryo'lchi» gazetasi va www.railway.uz sayti mamlakatimizda nashr etiladigan boshqa OAVdan farqli o'laroq temir yo'l sohasidagi islohotlar mavzusini nisbatan ko'proq va izchilroq yoritganini ta'kidlash joiz. Bir qarashda bu nashrlarning maqsad va vazifasiga ko'ra ushbu sohani yoritishda mas'ul bo'lganidan kelib chiqqan deyish mumkin, sensatsiya izidan quvib yoki bir gallik arzon informatsiyalar bilan kifoyalanib, oldi-qochdi, safsatalarini

chetlab o'tib, o'z mazmun va mohiyatiga mos va hos ish yuritishi gazetaning nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Bu tarzda yo'l tutish zamon talabi hamdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni yozish davomida o'z istiqboliga erishgan Vatanimizning qisqa muddat ichida iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy sohalarda qanchalik katta natijalarga erishganiga amin bo'ldik. O'zbekiston dunyoda 28-bo'lib avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylandi. Neftni qayta ishlash zavodlari, qator qo'shma korxonalar qurilib ularda tayyorlangan mahsulotlar xorijga eksport qilinmoqda. Bu esa davlatimizda valyutani olib kiradi. Temir yo'l transporti va xizmatlari sohasida O'zbekiston jahonning rivojlangan davlatlarining tajribalaridan kelib chiqib, o'z xizmat faoliyatini yaxshilab bormoqda.

Davlatimiz dunyodagi ko'plab davlatlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishga joriy qilinib o'z samarasini bermoqda. Bunday yirik o'zgarishlarni o'z vaqtida ilg'ab, yangiliklaridan ortda qolmasdan, aksincha ulardan o'zib jamiyatni ana shu ijobiy o'zgarishlaridan vaqtida xabardor etib turish ham nihoyatda zarurdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida quyidagi umumlashma xulosalarga kelindi:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda temir sohasidagi islohotlar jadal taraqqiy etib bormoqda. Buni biz "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati faoliyati, qurilayotgan yangi temir yo'llar, xorijdan olib kelinayotgan transportlardagi sharoitlardan korib olishimiz mumkin.

2. O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi sohada yurtimiz istiqboliyillarida erishgan yutuqlarini namoyon etadigan yirik tashkilot. U yurtdoshlarimiz va xorijdan kelgan mehmonlarga xizmat ko'rsatadi. Shu bois mazkur kompaniya o'zi haqidagi ma'lumotlarni turli OAV kanallari orqali yoritib borilishidan manfaatdor. Hozirgi paytda kompaniya faoliyati ko'plab OAVda ba'zi holatlarda, "Temiryo'lchi" gazetasi va kompaniyaning internet saytida uzluksiz yoritib kelinmoqda.

3. «Temiryo'lchi» gazetasi o'z yo'nalish va maqsadiga ko'ra temir yo'l sohasidagi islohotlar jarayonida O'zbekiston uchun batamom yangilik hisoblangan temir yo'l tizimlari va transportini boshqarish, muayyan soha tuzilishini tubdan o'zgartirishga doir dolzarb masalalarni yoritishga mo'ljallangan. Bu boarada tahririyat muxbirlaridan Oynisa Norboyeva, Farrux Do'stov, Firdavs Xayriddinov ijodiy materiallari yaxshi. Mazkur jurnalistlar deyarli har bir sonda o'zlarining tahliliy va axborot materiallari bilan qatnashadilar.

4. 2015-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan www.railway.uz - "O'zbekiston temir yo'llari" AJ veb-sayti ushbu tasnifda korporativ saytlar sirasiga kiritilishi mumkin. Ushbu saytda temir yo'l islohotlarini yoritish bo'yicha batafsil ma'lumotlar olish va kompaniya xodimlari bilan interaktiv muloqot o'rnatish ham mumkin.

4. "Temiryo'lchi" gazetasida temir yo'l sohasi islohotlarini yoritish tajribasi shunda ko'rinadikigazeta materiallarining mavzu qamrovi temir yo'l islohotlari bilan bir qatorda, "Jamiyat" va "Madaniy-ma'rifiy sahifa" bo'limlarida madaniyat, ma'rifat, ta'lim, huquq, sportva boshqa sohalarga oid axborotlarning berilishini kuzatish mumkin. Bu holat gazeta tahririyati xodimlarining o'z o'quvchilarining jamiyatning turli sohalaridagi so'nggi o'zgarishlardan ham voqif bo'lib borishlari uchun tinimsiz harakat qilishayotganini ko'rsatadi.

5. Janrlar masalasiga kelsak, gazeta sahifaslarida axborot janrlaridan xabar, hisobot; tahliliy janrlardan maqola, korrespondensiya, badiiy-publitsistik janrlardan ocherklar ko'proq yoritilishi ko'rinadi.

6. Temir yo'l sohasiga oid yangilanishlarni yoritishda mavzu va muammo ko'tarish mas'uliyati masalasida gapiradigan bo'lsak, nashrda ham, saytda ham faqat ijobiy ruhdagi materiallar berilgan. Tanqidiy materiallar juda oz. Jumladan, Farrux Do'stovning "Qo'shimcha yo'lovchi poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi", "Yangi yo'nalish yo'lga qo'yildi"; Oynisa Norboyevaning

“Stansiyada xizmat ko’rsatish sifati doimo yuqori”, Firdavs Xayriddinovning “Xizmat ko’rsatishdagi yangi yo’nalishlar” sarlavhali axborot materiallarining nomidan ham axborot materiali faqat ijobiy mazmundagi axborotni o’quvchilarga ma’lum qilishi sezilib turibdi. Demak, ushbu tarmoq nashrida tanqidiy ruhdagi materiallar ham berib borilishi zarur.

Mazkur bituiv malakaviy ishni bajarish chog’ida «Temiryo’lchi» gazetasida hamda www.railway.uz - “O’zbekiston temir yo’llari” AJ veb-sayti faoliyati bo’yicha ayrim takliflarni ham bildirib o’tmoqchimiz:

Birinchidan, «Temiryo’lchi» gazetasida reklama, e’lonlarining ko’p. Reklama va e’lonlarini gazetaga ilova tarzida kiritilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi. «Temiryo’lchi»ning sahifalari ko’proq mutaxassislikka oid materiallar bilan to’lardi.

Ikkinchidan, www.railway.uz - “O’zbekiston temir yo’llari” AJ veb-saytining umumiy qiyofasi bezaklarga boy bo’lmagani, asosan, matnli va rasmlil, chizmalil ma’lumotlar borligi zerikarlilik tuyuladi. Shu bois chet eldagi xuddi shunday saytlar bilan qiyoslansa, videolar, animatsion tasvirlar ham kiritilsa, saytning axborot berish texnologiyasi yanada rivojlangan bo’lar edi.

Uchinchidan, gazeta va saytda rang-baranglik yetishmaydi. Janrlarning turlarini ko’paytirish va ranglarning turli xillaridan o’rni bilan foydalanish kerak.



To’rtinchidan, saytda interaktiv muloqot tugmalari ko’p. Demak, ular orqali foydalanuvchi va mijozlar tomonidan bildirilgan xizmatlar va sayt faoliyati haqidagi fikrlarni qiyoslab, jurnalistik materiallar yozish va ularni e’lon qilish, mijozlarning tanqidiy fikrlari bo’lsa, ularga javob berishni yo’lga qo’yish kompaniyaning ham, uning faoliyatini yoritayotgan OAV uchun ham faqat foyda keltiradi.



Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi axborot asrida jurnalistika ham shaklan, ham mazmunan taraqqiy etmoqda. Tarmoq nashri bo’lgan «Temiryo’lchi» gazetasida hamda www.railway.uz - “O’zbekiston

temir yo'llari" AJ veb-sayti o'z imkoniyatlari doirasida o'z auditoriyasiga mazmunli axborot berib kelmoqda.

Gaazetaning bosh shiori bo'lgan "Temir yo'llar mamlakatimiz iqtisodiyotining qon tomirlaridir", demak, bu soha rivoji davlatning rivojlanishiga ham turtki bo'ladi. Uning taraqqiyotida esa biz tahlil etgan ikki OAV faoliyati va rolining yuqoriligini hech kim inkor qila olmaydi. Ushbu OAV bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi hamda davlatimizda temir yo'l sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni nafaqat, xaqimiz kishilariga, balki butun dunyo ahliga ham tanishtirishadi degan umiddamiz.

Illovalar:





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, hukumat qarorlari va boshqa hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: Adolat, 2011.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - Toshkent: Adolat, 1996.
3. Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida. To'rtinchi hokimiyat. -Toshkent: Mehnat, 2003.
4. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. To'rtinchi hokimiyat, -Toshkent: Mehnat, 2003.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. Xalq so'zi, 2007 yil, 15 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. Xalq so'zi, 2004 yil 11 fevral.

II. Rasmiy adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish, T., "O'zbekiston", 2009.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "O'zbekiston". 2010.
3. Mirziyoyev Sh. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". T., "O'zbekiston ", 2017.
4. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T., "O'zbekiston", 2016.
5. Mirziyoyev Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". T., "O'zbekiston". 2017.

III. Mavzuga doir maxsus adabiyotlar

1. Abduazizova N. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi.- T.:Akademiya.2007.
2. Авраамов Д.С. Профессиональная этика журналиста: Учебное пособие. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2003.
3. Berneys E. L. The Later Years. Public Relations Insights 1956-1986. Rhinebeck: Free Press, 1986.
4. Блэк С. PR: Международная практика. -М.: Довган, 1997.
5. Девис Д. Албука телевидения. -М.:Искусство, 1962.
6. Саппак В. Телевидение и мы . -М.:Искусство, 1963.
- 7.Do'stmuhammedov H. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. –T.: O'zbekiston , 2005.
8. Засурский Я.Н. Искушение свободой. Российская журналистика: 1990- 2004. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004.
9. Muhamedov M., Fayzieva F., Ablyayeva V. Televidenie asoslari. – T.: Voris-nashriyot, 2009.
10. Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish. O'quv qo'llanma. -T.: O'zMU 2005.
11. Lug'at-ma'lumotnoma. Jurnalistika, Reklama, Pablik Rileyshnz. 1700 atama. Mualliflar F.Nesterenko va boshq. T.: Zarqalam.2003.
12. Прохоров. Е.П. Журналистика и демократия. -М.: Аспент Пресс. 2004.
13. Труд журналистика: проессионализм, творчество, мастерство. Уч.пос. II-том, Т.НУУЗ, 2002 г.
14. Социология журналистики. -М.: Аспект Пресс, 2004.
15. Пресса и общественное мнение. -М.: 1986.
16. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. o'quv qo'llanma. Mualliflar: Q.Ernazarov va boshq. -T.: O'zMU. 2002.
17. Чумиков А. Связи с общественностью. -М.:Дело, 2000.

18. Юровский А.Я., Борецкий Р.А Основы телевизионной журналистики.- М.:МГУ, 1966.
19. Шепель. В.М. Имиджиология. -М.: Народное образование, 2002.
20. Fixtelius E. Jurnalistikaning o'n qoidasi. -T.: Sharq.2002.
21. Enternational Encyclopedia of Communications Publised Jointitly with the Annerbery School of Communications. Univ. of Pencilvania-Oxford univ. Press.NY, Oxford. 1989. Vol.1-4.
22. International Centre for Media studies (ISMI) Malaesia.1995.
23. Everette E. Denis. John S. Merriel. Media debats. Issues in Mass Communication. New York 1991.
24. Carole Rich. Writing and reporting news Wadsworth-Thomson learning. 1997.
25. Tafakkur gulshani. -T.: G'afur G'ulom nashriyoti.1989.
26. Haqiqat manzaralari. -T.:Yangi asr avlodi. 2007.
27. Засурский Л.Н.и другие. Система средства массовой информации России. -М.: Аспект Пресс, 2001.
28. Вакурова Н. В., Московкин Л. И. Типология жанров современной экранной продукции. Учебное пособие.1997
29. Кузнецов Г. В. Так работают журналисты ТВ. Учебное пособие. 2004.
30. Прохоров. Е.П. Журналистика и демократия. -М.: Аспект Пресс. 2004.

IV. Газета ва журнал материаллари

1. Badalova U.I. To'rtinchi hokimiyat egalari, "Tafakkur" jurnali
05.02.2010

2. Turobova M.T. Agar ogoh sen, "O'zbekiston matbuoti"
jurnali 02.03.2012

WEB ресурслар

1. <http://www.mtrk.uz>
2. <http://www.books.ru>
3. <http://www.bookz.ru>
4. <http://www.uzreport.com>
5. <http://www.google.com>